

**XALQARO QISHLOQ XO‘JALIGI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.05/15.12.2022.I.155.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

**QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRLIGI HUZURIDAGI OZIQ-OVQAT VA
QISHLOQ XO‘JALIGI SOHASIDA STRATEGIK RIVOJLANISH VA
TADQIQOTLAR XALQARO MARKAZI**

DURMANOV AKMAL SHAYMARDANOVICH

**ISSIQXONA XO‘JALIKLARI FAOLIYATINI SAMARADORLIGINI
OSHIRISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.04 – Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) tadqiqot ishi
TAQDIMOTI**

Toshkent – 2025

Fan doktori (DSc) tadqiqot ishining taqdimotini mundarijasi

Содержание предоставления исследовательской работы на соискание

учёной степени доктора наук (DSc)

**Presentation outline of the research work for the degree of Doctor of Science
(DSc)**

Durmanov Akmal Shaymardanovich

Issiqxona xo‘jaliklari faoliyatini samaradorligini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish.....3

Дурманов Акмал Шаймарданович

Совершенствование научно-методических основ повышения эффективности тепличных хозяйств.....51

Durmanov Akmal Shaymardanovich

Improving scientific and methodological foundations for increasing the efficiency of greenhouse farms.....102

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works108

**XALQARO QISHLOQ XO‘JALIGI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.05/15.12.2022.I.155.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

**QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRLIGI HUZURIDAGI OZIQ-OVQAT VA
QISHLOQ XO‘JALIGI SOHASIDA STRATEGIK RIVOJLANISH VA
TADQIQOTLAR XALQARO MARKAZI**

DURMANOV AKMAL SHAYMARDANOVICH

**ISSIQXONA XO‘JALIKLARI FAOLIYATINI SAMARADORLIGINI
OSHIRISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.04 – Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) tadqiqot ishi
TAQDIMOTI**

Toshkent – 2025

Fan doktori (DSc) tadqiqot ishi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2018.3.DSc/Iqt146-raqam bilan ro'yxatga olingan. Tadqiqot ishi Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasida strategik rivojlanish va tadqiqotlar xalqaro markazida bajarilgan.

Tadqiqot ishi taqdimoti uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasida (www.iau.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Farmanov To'liq Xayitmurodovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Egamberdiyev Farmonkul Tursunkulovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tashmatov Rustam Xusanovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand Filiali

Tadqiqot ishi himoyasi Xalqaro qishloq xo'jaligi universiteti huzuridagi PhD.05/15.12.2022.I.155.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil "___" _____ soat ___ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100140 O'zbekiston Respublikasi, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2a-uy. tel.: +(99) 981-09-19, e-mail: info@iau.uz

Fan doktori (DSc) tadqiqot ishi bilan Xalqaro qishloq xo'jaligi universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ -raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100140, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2a-uy. tel.: +(998)981-09-19, e-mail: info@iau.uz

Tadqiqot ishining taqdimoti 2025 yil "___" _____ kuni tarqatildi.
(2025 yil "___" _____ dagi ___ raqamli reyestr bayonnomasi).

I.B.Rustamova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

A.E.Primov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi,
iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Sh.T.Hasanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

KIRISH (Tadqiqot ishining annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini belgilovchi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini barqaror rivojlantirish asosida oziq-ovqat xavfsizligiga erishish masalasi jahon iqtisodiyotining dolzarb muammolari sifatida yuzaga chiqmoqda. Zero, dunyo bo'yicha aholi sonining muntazam o'sib borishi oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabni mutanosib ravishda oshirish zaruriyatini talab qilmoqda. Bu esa, insoniyatga iqtisodiyotni intensiv rivojlantirish imkoniyatlaridan foydalanish bilan bir vaqtda xo'jalik yuritishning zamonaviy innovatsion va resurstejamkor usullarini yaratish va amaliyotda tizimli joriy qilish majburiyatini yuklamogda.

Antropogen omillar ta'siri oqibatida dunyoda kuzatilayotgan global iqlim o'zgarishi, "issiqxona effekti" kabi ekologik inqirozlar mamlakatlar oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlab beruvchi asosiy tarmoq hisoblangan qishloq xo'jaligi sohasiga ham sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Mutaxassislar fikricha, "... 2100 yilga borib issiqxona effekti oqibatida jahon yalpi ichki mahsuloti 20 foizdan ortiqqa pasayishi"¹ bashorat qilinmoqda. Bu esa, ushbu antropogen omillarning salbiy ta'sirlarini yumshatish bilan bir qatorda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida mavjud resurslardan oqilona foydalanish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini iqlim o'zgarishlariga moslashtirish tadbirlarini amalga oshirish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Shu jihatdan, issiqxonalarda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish va ushbu yo'nalishda tadqiqotlar olib borish global ko'lamda dolzarb vazifa sifatida yuzaga chiqdi.

Mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, ichki bozorni sifatli, xavfsiz va arzon oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'ldirish, aholining xarid qobiliyatlarini mustahkamlash borasida keng tarmoqli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash maqsadida "... issiqxona xo'jaliklarida boshqaruv tizimini takomillashtirish hamda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etish, shuningdek, zamonaviy resurs tejamkor texnologiyalar asosida yuqori sifatli, raqobatbardosh va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish hajmlarini kengaytirish"² kabi ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Shu jihatdan himoyalangan yerlarda ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanishga qaratilgan issiqxona xo'jaliklari faoliyatini samaradorligini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish yo'nalishida tadqiqotlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni, 2017 yil 9 oktyabrdagi "Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya

¹ Simon Jessop. Coastal flooding could hit 20% of world GDP by 2100 – study. <https://www.reuters.com/article/us-climatechange-floods-study-idUKKCN24V2RZ>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 20 martdagi "O'zbekiston Respublikasida bog'dorchilik va issiqxona xo'jaligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4246-sonli qarori. - <https://lex.uz/docs/4249824>

qilish, qishloq xo'jaligi ekin maydonlaridan samarali foydalanish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5199-son, 2018 yil 16-yanvardagi "Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini yanada ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5303-son, 2019 yil 17 iyundagi "Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish konsepsiyasi to'g'risida" PF-5742-son, 2019 yil 23 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-son va 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmonlari, shuningdek 2018 yil 20 noyabrdagi "Issiqxona komplekslarini rivojlantirish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4020-son va 2019 yil 20 martdagi "O'zbekiston Respublikasida bog'dorchilik va issiqxonalarni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4246-son qarorlari va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot ishi respublikada fan va texnologiyalar taraqqiyotining "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq ITD-2 "Demokratik islohotlarni yana-da chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash va erkinlashtirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish" davlat ilmiy-texnika dasturiga muvofiq amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqotlar doirasida bajarilgan.

Tadqiqot ishi mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi³. Hozirgi vaqtda dunyo qishloq xo'jaligi iqtisodiyotida issiqxona xo'jaliklari faoliyatining samaradorligini oshirish va ularning faoliyatini baholash muammolari bo'yicha jahonning yetakchi ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlarida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Massachusetts universiteti (Angliya), IAMO – Leibniz Institute of Agricultural Development in Transition Economies (Germaniya), Vashington Milliy fanlar akademiyasi (AQSH), Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va ilmiy-texnika axboroti instituti (Xitoy), Food and Agriculture Organization (FAO), International Center for Agricultural Research in the Dry Areas (ICARDA), United Nations Development Programme (UNDP) (PROON), United States Agency for International Development (USAID), K. A. Timiryazev nomli Rossiya davlat agrar universiteti – Moskva qishloq xo'jaligi akademiyasi (Rossiya), Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasida strategik rivojlanish va tadqiqotlar xalqaro markazi (O'zbekiston) ana shular jumlasidandir.

Massachusetts universiteti olimlari (Douglas Cox, Composting Natalia Clifton va boshqalar, 2002 y.) issiqxona (sanoatini) kompleksini nafaqat iqtisodiy qo'llab quvvatlash lozim, balki birinchi navbatda ekologik qo'llab quvvatlash ushbu

³ Tadqiqot ishi mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi www.zef.de/, www.uni-goettingen.de, www.iamo.de, www.sdu.dk, www.uq.edu.au/economics/cepa/, www.uv.es/uvweb/applied_economics_department/, www.uwrf.edu/AGEC/, www.pku.edu.cn, www.wur.nl/en/Education-Programmes/PhD-Programme va boshqa manbalar asosida.

faoliyatni barqaror rivojlanishini ta'minlab berishini tadqiqotlari davomida asoslab berdi.

Vashington Milliy fanlar akademiyasi olimlari (K. John Holmes, 2011 y.) issiqxona gazlarini kamaytirish iqtisodiyotini modellashtirish nomli tadqiqot ishida, texnologik tafsilotlar darajasi, texnologik taraqqiyotni fazoviy va tarmoq detallari, energetika sektorining umumiy iqtisodiyot va atrof-muhitga o'zaro ta'sirini ifodalash, issiqxona xo'jaligi xarajatlar smetalariga ta'sir qiluvchi turli modellarni texnologik o'rganish va ishlab chiqarish hajmini oshirish natijasi hamda xarajatlarni kamaytirish kabi bir nechta usullardan foydalanilgan.

Hozirgi davrda dunyo miqyosida issiqxona xo'jaliklari faoliyatini samaradorligini oshirish bo'yicha quyidagi yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: energiya samaradorligi va qayta tiklanadigan energiya integratsiyasi (issiqlik energiyasini saqlash, quyosh panellari va geotermal energiya), avtomatlashtirish va aqlli texnologiyalar (IoT, DT, AI), suv va ozuqa resurslaridan foydalanishni maqbullashtirish, iqlimga moslashish va chidamlilik, issiqxona konstruksiyasi (dizayni, modifikatsiyasi), klaster va kooperativ modellar, dehqonchilik (dorivor o'simliklar va ekzotik sabzavotlar) kimyo va bioishlanmalar (almashlab va muqobil ekin ekish tizimlari), iqtisodiy tizimlar va bozor tadqiqotlari (logistika, global ta'minot zanjirlarini tahlil qilish), geodeziya va geoinformatika, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi kabi tizim faoliyati samaradorligiga kompleks baho berish, maqbullashtiruvchi iqtisodiy-matematik modellarni qo'llagan holda issiqxona xo'jaliklarida ishlab chiqarish tarkibini takomillashtirish va boshqalar.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Issiqxonalarda sabzavotchilik rivojlanishining nazariy va amaliy jihatlari, ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va konsentratsiyalash masalalari, sabzavot yetishtiruvchi korxonalarda sarf-xarajatlarni boshqarish va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni shakllantirish muammolari xalqaro iqtisodchi olimlar Abedrabbah O., Koç M., Biçer Y., Aslan M. F., Durdu A., Sabanci K., Ropelewska E., Gültekin S. S., Zhang M., Wang L., Wang Q., Chen D., Liang X., Alshami A. K., El-Shafei A., Al-Omran A. M., Alghamdi A. G., Louki I., Alkhasha A., I.A.Minakov, A.V.Nikitin, N.P.Kastornov, Ye.V.Zakshevskaya, V.Z.Mazloyev, N.R.Kurkina, I.T.Farniyeva, Douglas Cox, Composting Natalia Clifton, Storage John W. Bartok, Taryn LaScola, Pesticide Division, K. John Holmes⁴ va boshqa xorijiy olimlarning izlanishlarida o'z aksini topgan.

⁴ Abedrabbah, O., Koç, M., & Biçer, Y. Modelling and analysis of a renewable energy-driven climate-controlled sustainable greenhouse for hot and arid climates. *Energy Conversion and Management*, 2022 - 273 b.; Aslan, M. F., Durdu, A., Sabanci, K., Ropelewska, E., & Gültekin, S. S. A Comprehensive Survey of the Recent Studies with UAV for Precision Agriculture in Open Fields and Greenhouses. *Applied Sciences*, 2022 – 30 b.; Zhang, M., Wang, L., Wang, Q., Chen, D., & Liang, X. The environmental and socioeconomic benefits of optimized fertilization for greenhouse vegetables. *Science of the Total Environment*. 2024 – 908; Alshami A. K., El-Shafei A., Al-Omran A. M., Alghamdi A. G., Louki I., Alkhasha A. Responses of Tomato Crop and Water Productivity to Deficit Irrigation Strategies and Salinity Stress in Greenhouse. *Agronomy*, 2023- 19 b; Minakov I.A., Nikitin A.V., Kastornov N.P. i dr. *Ekonomika i organizatsiya proizvodstva ovoshey: Monografiya*. – Michurinsk: Izd-vo Michurinskiy gosagrouniversitet, 2010. – 184 b.; Zakshevskaya Ye.V. *Funksionirovaniye i razvitiye rinka ovoshey*. - Voronej: NIIEOAPK. – 2009. - 186 b.; Mazloyev V.Z. *Gosudarstvennoye regulirovaniye formirovaniya rinochnix otnosheniy v regionalnom agrarno-promishlennom komplekse*. – M.: RUDN, 2000. – 219 b.; Kurkina N.R. *Sovershenstvovaniye organizatsionno-ekonomicheskogo mexanizma razvitiya sistemi prodovolstvennogo*

Mamlakatimizda esa mazkur muammo bo'yicha agrar iqtisodchi olimlar S.S.G'ulomov, T.X.Farmonov, F.T.Egamberdiyev, G.A.Samatov, I.B.Rustamova, Sh.T. Xasanov, U.R. Nazarqulov, F.B. Axrorov, S.R.Umarov, O.T.Jumayev, O.G.Dilmurodov, Z.A.Sagdillayeva, D.N.Saidova, S.T.Iskandarov⁵lar kabi agrar iqtisodchi olimlar ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Issiqxona xo'jaliklari faoliyatini rivojlanishining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini, ayniqsa, issiqxonalarda sabzavotlar yetishtiradigan xo'jaliklarning samarali faoliyat ko'rsatishiga iqtisodiy – huquqiy muhit yaratish va mamlakatimizda sabzavotlar bozorini barqaror rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish masalasi alohida tadqiqot mavzu sifatida o'rganilmaganligi bois, shu yo'nalishdagi ilmiy-tadqiqot ishlarining davomiyligini ta'minlash mazkur muammoning tadqiqot ishi mavzusi sifatida tanlanishiga asos bo'ldi.

Tadqiqot ishining bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Tadqiqot ishi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasini strategik rivojlanish va tadqiqotlar xalqaro markazining "Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash" bo'limining ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida amalga oshirildi.

Tadqiqotning maqsadi issiqxona xo'jaliklari faoliyati samaradorligini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy jihatdan asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari ilmiy tadqiqotning maqsadiga erishish bo'yicha qo'yidagi vazifalarni ko'rib chiqilishi belgilandi:

issiqxona xo'jaliklari faoliyatining samaradorligini belgilovchi "Ekologiya, jamiyat va boshqaruv" (ESG) darajasi bo'yicha integral baholash mezonlariga asoslangan uslubiy yondashuvni ishlab chiqish;

O'zbekiston Respublikasi misolida xalqaro sabzavot mahsulotlari bozorining narx strategiyasini matritsasi va narx indeksleri darajasini ishlab chiqish;

issiqxona xo'jaliklarining raqamli transformatsiyalarga tayyorgarlik darajasiga ko'ra ko'p bosqichli tashxis qo'yadigan raqamli tahlil hamda reyting tizimi orqali ekspert va miqdoriy baholash uslublarini ishlab chiqish;

obespecheniya. – avtoreferat dissertatsii k.e.n.. – Moskva, 2010. – 24 b.; Farniyeva I.T. Zarubejniy opit funkcionirovaniya organizatsionno-ekonomicheskogo mexanizma upravleniya v sisteme APK. - Izvestiya Gorskogo gosudarstvennogo agrarnogo universiteta, 2011 - S. 282 b.; Douglas Cox, Composting Natalia Clifton, Storage John W. Bartok, Taryn LaScola, Pesticide Division. Massachusetts greenhouse industry best management practices guide. 2002. – 152 b.; K. John Holmes. Modeling the economics of greenhouse gas mitigation. National Academy of Sciences. 2011. – 161 b.

⁵G'ulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes – o'quv qo'llanma. – T.: 2004 – 233 b.; Farmonov T.X. Effective Economic Model for Greenhouse Facilities Management and Digitalization. - Journal of Human, Earth, and Future, 2024, Vol. 8, – №5. - p. 864-874.; Umarov S.R. Greenhouse Vegetable Market Development Based on the Supply Chain Strategy in the Republic of. - Uzbekistan. - International Journal of Supply Chain Management, 2019. – Vol. 8, – №5. - p. 864-874.; Samatov G.A. va b. Issiqxona xo'jaliklarini tashkil qilish va yuritish. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2007 – 280 b.; Saidova D.N., Rustamova I.B., Tursunov Sh.A. Agrar siyosat va oziq-ovqat xavfsizligi. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2016 – 290 b.; Jumayev O.T. Ko'p ukladli iqtisodiyot sharoitida meva-sabzavotchilik majmuasida kooperatsiyani rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari. – Toshkent, 2004. – 152 b.; Dilmurodov O.G. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida meva-sabzavotchilik majmuida mahsulot sotishning logistik zanjirini takomillashtirish. – diss. ... i.f.n.. – T.: 2010. – 152 b.; Sagdillayeva Z.A. Ekonomicheskaya effektivnost ovoshevodstva zashishennogo grunta v usloviyax stanovleniya rinka: – diss... k.e.n. – T.: 1995. – 120 s.; Iskandarov S.T. Sabzavotchilik tarmog'ida samaradorlikni oshirishning asosiy yo'nalishlari. Monografiya. – T.: Fan va texnologiya, 2016. – 152 b.

sabzavotchilik mahsulotlari bozorida tovar mahsulotlari kesimida takliflarni shakllantirish va samaradorligini oshirish yo'llari bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqish;

issiqxonalarda sabzavotchilikni rivojlantirishni ta'minlaydigan tadbirlarni davlat tomonidan tartibga solish va istiqbolda issiqxonalarda sabzavot mahsulotlarini yetishtirish tendensiyalari bo'yicha ilmiy va amaliy taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti. Ilmiy tadqiqotlar respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan issiqxona xo'jaliklari (issiqxona majmualari, agroklasterlar, fermer, dehqon va tomorqa xo'jaliklari)ning faoliyati, issiqxonada yetishtirilgan mahsulotlarni saqlash, qayta ishlash, eksport-import bilan shug'ullanadigan xo'jalik subyektlari miqyosida amalga oshirildi. Alohida monografik tadqiqotlar Qoraqalpog'iston Respublikasi, shuningdek Toshkent, Jizzax, Sirdaryo, Samarqand, Buxoro va Andijon viloyatlarining issiqxona faoliyatiga ixtisoslashgan xo'jalik yurituvchi subyektlari misolida olib borildi.

Tadqiqotning predmeti bo'lib issiqxona xo'jaliklarining ishlab chiqarish-huquqiy-moliyaviy-investitsion va boshqa yo'nalishdagi faoliyatlarining samaradorligini oshirish bilan bog'liq munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida statistik guruhlash, qiyosiy tahlil, iqtisodiy tahlil, mantiqiy va abstrakt fikrlash, anketa-so'rovnoma o'tkazish, kompleks va tizimli yondashuv, iqtisodiy-matematik modellar, monografik kuzatuv va PESTLE, SWOT, DIGITAL, SMART PLS, SEM, ESG tahlil uslublaridan keng miqyosda foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

issiqxona xo'jaliklari faoliyatining samaradorligini belgilovchi "Ekologiya, jamiyat va boshqaruv" (ESG) darajasi bo'yicha "juda past [0,00 - 0.200]", "past [0,201 - 0,400]", "o'rtacha [0,401 - 0,600]" va "yuqori [0,601 - 0,800]", "juda yuqori [0,801 - 1,000]" integral baholash mezonlariga asoslangan uslubiy yondashuv ishlab chiqilgan;

issiqxonada yetishtirilgan oziq-ovqat mahsulotlarini sotishdan olinadigan qo'shilgan qiymat miqdori va o'zgaruvchi indikatorlar o'rtasidagi qisqa va uzoq muddatli bog'liqlik indeks darajasiga bevosita ta'sir etadigan (EVIIEWS dasturi) omillar tahliliga muvofiq, issiqxona klasterlari faoliyatini maqbullashtirish va rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

issiqxona xo'jaliklarining raqamli transformatsiyalarga tayyorgarlik darajasini o'zaro bog'liq beshta ko'rsatkichlar (tanlash, sifat, mazmun, mavzu-tarmoq, dastur-tavsiya) va yettita reyting tizimlari (DIGITAL) (D – defitsitlar, I – qishloq xo'jaligidagi innovatsiyalar, G – yer resurslari va iqlim; I – infratuzilma, T – asbob-uskunalar, texnologiya, A – ma'muriy jarayonlar, L – qonunchilik) orqali ekspert hamda miqdoriy baholash uslublari ishlab chiqilgan;

O'zbekistonda issiqxonalarini rivojlanishiga ta'sir etuvchi to'rtta asosiy gipoteza - omillar, ya'ni, (H1) iqtisodiyotda barqaror faoliyat ko'rsatish, (H2) salohiyatli agrologistika va infratuzilma subyektlari faoliyati, (H3) davlat

tomonidan iqtisodiy qo'llab-quvvatlash, biznesning shaffof va jozibador muhiti, (H4) raqobat ta'siri kabi omillardan iborat konseptual model ishlab chiqilgan;

issiqxona xo'jaliklarida raqamli ta'minot zanjiri integratsiyasi 15ta omilli DEA tahlili orqali amalga oshirilib, unda ishlab chiqarish natijalari, iqtisodiy samaradorlik va rentabellik o'rtasidagi gipotezaviy munosabatlarni xaritalashning konseptual tadqiqot modeli ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Toshkent, Samarqand va Buxoro viloyatlaridagi issiqxona xo'jaliklari faoliyati samaradorligini "Ekologiya, jamiyat va boshqaruv" (ESG) mezonlari asosida integral baholash uchun metodik yondashuv ishlab chiqildi. ESG ballari asosida faoliyat darajasi juda past (0,00–0,200)dan juda yuqori (0,801–1,000)gacha bo'lgan besh toifaga ajratiladi. Ushbu usul rahbarlarning ishbilarmonlik salohiyatini baholash, atrof-muhitga ta'sirni aniqlash, boshqaruvni takomillashtirish, yangi ish o'rinlari yaratish, investitsiyalarning samaradorligini va eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi;

issiqxonada yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining qo'shilgan qiymati va indikatorlar o'rtasidagi bog'liqlikni (EVIIEWS dasturi asosida) tahlil qilish orqali oziq-ovqat xavfsizligi va mahsuldorlikni oshirishga qaratilgan klaster faoliyatini maqbullashtirish bo'yicha tashkiliy-iqtisodiy tavsiyalar ishlab chiqildi. Ular jamoaviy qaror qabul qilish, texnologik integratsiya, resurs tejamkorligi, importga qaramlikni kamaytirish, ekinlar diversifikatsiyasi va davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish imkonini beradi;

qishloq xo'jaligi subyektlarining (issiqxonalarining) raqamli transformatsiyalarga tayyorlik darajasiga ko'ra ko'p bosqichli tashxis qo'yadigan raqamli "DIGITAL" tahlil uslubi "Green capital" MCHJ hamda "Bek cluster" MCHJlariga joriy qilinib, u beshta o'zaro bog'liq bosqichda (tanlash, sifat, mazmun, mavzu-tarmoq, dastur-tavsiya) va yettita baholash bo'limini o'z ichiga olib, taklif etilayotgan ko'rsatkichlar va reyting tizimi orqali ekspert va miqdoriy baholash uslublari ishlab chiqilgan va asoslangan. Ushbu ilmiy-uslubiy tavsiyalar hududlardagi fermerlarni raqamli savodxonlik dasturlari bilan ta'minlash, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, raqamli platformalarga moslashish, ekinlarni parvarishlash, harorat kabi jarayonlarni monitoringini optimallashtirishga xizmat qiladi;

O'zbekistonda issiqxona xo'jaliklari rivojlanishiga ta'sir etuvchi to'rtta asosiy gipoteza asosida konseptual model ishlab chiqildi (koeffitsiyent: 0,934): H1: Iqtisodiy barqarorlik rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi; H2: Infratuzilma va resurslar mavjudligi muhim ahamiyatga ega; H3: Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, an'anaviy tajriba va biznes faolligi rivojlanishni rag'batlantiradi; H4: Raqobat muhiti issiqxona xo'jaliklari rivojlanishga ta'sir ko'rsatadi. Model asosida ishlab chiqilgan ilmiy-uslubiy tavsiyalar amaliyotga joriy etilganda, issiqxona faoliyati samaradorligi, zamonaviy boshqaruv, resurslardan oqilona foydalanish, aylanma iqtisodiyot, yangi texnologiyalar, ish o'rinlari va iqtisodiy imkoniyatlar ortishiga xizmat qiladi;

issiqxona xo'jaliklarida raqamli ta'minot zanjiri integratsiyasi 15ta faktorli DEA tahlili asosida baholandi. Ushbu tahlilda ishlab chiqarish natijalari, iqtisodiy

samaradorlik va rentabellik o'rtasidagi bog'liqlikni aks ettiruvchi konseptual model ishlab chiqildi. Model natijalariga ko'ra: rentabellik 36%ga oshadi, xarajatlar 19%ga kamayadi, mehnat unumdorligi 29%ga o'sadi, raqamli integratsiya texnik samaradorlikni an'anaviy usulga nisbatan 22%ga optimallashtiradi. Tadqiqot asosida ishlab chiqilgan tavsiyalar samaradorlikni oshirish, islohotlar va maqsadli dasturlar tayyorlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular hududiy mutaxassislar tomonidan amaliyotga joriy qilish uchun ma'qullangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, Qishloq xo'jaligi vazirligi ma'lumotlaridan foydalanilganligi, agrar soha olimlarining sabzavotchilik tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy-amaliy tadqiqot ishlarini qiyosiy va tanqidiy tahlil qilish, izlanish jarayonida qo'llanilgan metodologik yondashuv va usullarning asoslanganligi, axborot bazasining rasmiy manbalardan olinganligi, shuningdek taklif hamda tavsiyalarining amalda sinovdan o'tganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, bozor segmentatsiyasi va iste'molchilarning istaklarini hisobga olgan holda, himoyalangan maydonlarda sabzavotchilikni rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy takliflar issiqxonalar faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish imkonini beradi. Shuningdek tadqiqot ishining yakuni bo'yicha ishlab chiqilgan mazkur ilmiy taklif va tavsiyalardan hududlarning issiqxona xo'jaliklari faoliyatini samaradorligini oshirish va ularni isloh qilish bo'yicha manzilli yo'l xaritalari, maqsadli dasturlar hamda chora-tadbirlar ishlab chiqishda keng miqyosda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, issiqxona xo'jaliklari faoliyatini samaradorligini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish, yetishtiriladigan sabzavotlar bozorini rivojlantirish va ularda tovar mahsulotlari bo'yicha takliflarni shakllantirish, himoyalangan maydonlardagi sabzavotchilikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash borasida Qishloq xo'jaligi vazirligi, O'zbekiston fermer xo'jaliklari kengashi, mahalliy hokimliklar faoliyatida hamda oliy ta'lim muassasalarida "Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti", "Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti", "Logistika", "Kichik biznes va tadbirkorlik" fanlarining o'quv dasturlarini takomillashtirishda qo'llanilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Issiqxonalar faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Toshkent, Samarqand va Buxoro viloyatlaridagi issiqxona xo'jaliklari faoliyati samaradorligi "Ekologiya, jamiyat va boshqaruv" (ESG) darajasi bo'yicha "juda past [0,00 – 0,200]", "past [0,201 - 0,400]", "o'rtacha [0,401 - 0,600]" va "yuqori [0,601 – 0,800]", "juda yuqori [0,801 – 1,000]" integral baholash mezonlariga asoslangan uslubiy yondashuvlar amaliyotga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024 yil 21 dekabrda 05/06-04-675-son ma'lumotnomasi, O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari Kengashining 2024 yil 19 noyabrda 01/03-1483/AR-son

ma'lumotnomasi). Natijada ushbu uslubiy tavsiyalar qishloq xo'jaligi rahbarlarining ishbilarmonlik qobiliyatini baholash, shuningdek atrof-muhitga yetkazilgan zararni qoplash, boshqaruv samaradorligini oshirish, yuqori texnologiyali ish o'rinlarini yaratish, investitsiyalar rentabelligi va qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksport darajasini oshirishga imkon beradi;

Issiqxonada yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining qo'shilgan qiymati va o'zgaruvchi indikatorlar o'rtasidagi qisqa va uzoq muddatli bog'liqlik indeks darajasiga bevosita ta'sir etuvchi omillarni EVIEWS dasturi yordamida tahlil qilish asosida oziq-ovqat xavfsizligi va oziq-ovqat ekinlarining samaradorligini oshirish uchun issiqxona klasterlari faoliyatini maqbullashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar amaliyotga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024 yil 21 dekabrda 05/06-04-675-son ma'lumotnomasi). Natijada ushbu ilmiy-uslubiy tavsiyalar hududlardagi muammolarni hal etishda jamoaviy qarorlar qabul qilish, texnologik integratsiya, resurslarni tejash, importga qaramlilik masalasini hal qilish, ekinlarni diversifikatsiya qilish, shaffoflik va resurslardan maqsadli foydalanishni ta'minlashda klasterlar hamkorligini mustahkamlash va davlat-xususiy sherikligida boshlang'ich sarmoyalarni samarali shakllantirishga imkon beradi;

qishloq xo'jaligi subyektlarining (Issiqxonalarning) raqamli transformatsiyalarga tayyorlik darajasiga ko'ra ko'p bosqichli tashxis qo'yadigan raqamli tahlil metodologiyasi "Green capital" MCHJ hamda "Bek cluster" MCHJlariga joriy qilinib, u beshta o'zaro bog'liq bosqichda (tanlash, sifat, mazmun, mavzu-tarmoq, dastur-tavsiya) va yettita baholash bo'limi, ya'ni (DIGITAL) (D – defitsitlar, I – qishloq xo'jaligidagi innovatsiyalar, G – yer resurslari va iqlim; I – infratuzilma, T – asbob-uskunalar, texnologiya, A – ma'muriy jarayonlar, L – qonunchilik) o'z ichiga oliadi. Mazkur taklif etilayotgan ko'rsatkichlar va reyting tizimi orqali ekspert va miqdoriy baholash uslublari ishlab chiqarishda keng miqyosda qo'llanilmoqda (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024 yil 21 dekabrda 05/06-04-675-son ma'lumotnomasi). Natijada ushbu ilmiy-uslubiy tavsiyalar hududlardagi fermerlarni raqamli savodxonlik dasturlari bilan ta'minlash, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, raqamli platformalarga moslashish, ekin, harorat kabi jarayonlarni monitoringini optimallashtirishga xizmat qiladi;

O'zbekistonda issiqxonalarni rivojlanishiga ta'sir etuvchi to'rtta gipoteza - omillar, ya'ni, (H1) iqtisodiy barqarorlik issiqxonani rivojlantirishda ijobiy va muhim rol o'ynashini, (H2) qo'llab-quvvatlovchi infratuzilma, (H3) davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, resurslarning mavjudligi, biznes faolligi va an'anaviy tajriba kabi omillar, (H4) raqobat ta'siri kabi omillar asosida konseptual modeli (bu model 0.934 koeffitsiyent ko'rsatkichga ega) ishlab chiqilib, amaliyotga joriy qilish va o'quv darsliklarida foydalanish uchun qabul qilingan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq

xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024 yil 21 dekabrda (05/06-04-675-son ma'lumotnomasi). Natijada ushbu ilmiy-uslubiy tavsiyalar amaliyotga bosqichma-bosqich joriy qilinishi issiqxona xo'jaliklari faoliyati samaradorligini oshirish, zamonaviy biznes boshqaruvini tashkil etish, biznes rajalar ishlab chiqish, mavjud resurslardan samarali foydalanish, aylanma iqtisodiyotni rivojlantirish, resurs tejaydigan yangi texnologiyalardan foydalanish, yangi ish o'rinlarini yaratish va yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratishda keng miqyosda foydalanib, yuqori samaradorlikka erishish imkoniyatini yaratadi;

Issiqxona xo'jaliklarida raqamli ta'minot zanjiri integratsiyasi 15ta faktorli DEA tahlili orqali amalga oshirilgan bo'lib, unda ishlab chiqarish natijalari, iqtisodiy samaradorlik va rentabellik o'rtasidagi gipotezaviy munosabatlarni xaritalashning konseptual tadqiqot modeli ishlab chiqarishga joriy qilish uchun qabul qilingan. Mazkur modellarda qishloq xo'jaligi ma'lumotlari oqimi va ta'minot zanjiridan iborat platformalarga ulanish qo'shimcha afzalliklar, xususan, issiqxona xo'jaliklarining rentabellik darajasini kamida 36%ga o'sishi, xarajatlar miqdori 19%ga kamayishi, mehnat unumdorligi 29%ga oshishi va raqamli integratsiya an'anaviy amaliyotga nisbatan 22% maqbullashtirilgan texnik samaradorlikka mos kelishi aniqlandi (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024 yil 21 dekabrda (05/06-04-675-son ma'lumotnomasi). Natijada ushbu ilmiy-uslubiy tavsiyalar issiqxona xo'jaliklari faoliyati samaradorligini oshirish va uni isloh qilish hamda faoliyatni takomillashtirish bo'yicha manzilli yo'l xaritalari, maqsadli dasturlar va chora-tadbirlar ishlab chiqishda foydalanish maqsadga muvofiq.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot ishi natijalari jami 27 ta, shu jumladan 20 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan va ma'qullangan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 34 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta ilmiy monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 25 ta maqola, shu jumladan 7 tasi respublika va 18 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

TADQIQOT ISHINING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot ishi mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari hamda obyekt va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalarini rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va tadqiqot ishi tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

“O'zbekistonda issiqxona xo'jaligining iqtisodiy samaradorligi: ESG tamoyillari misolida”⁶, nomli maqolada issiqxona xo'jaliklari faoliyatining

⁶ (PDF) ECONOMIC EFFICIENCY OF GREENHOUSE FARMING IN UZBEKISTAN-A CASE FOR ESG-DRIVEN GROWTH

samaradorligini belgilovchi “Ekologiya, jamiyat va boshqaruv” (ESG) darajasi bo‘yicha “juda past [0,00 - 0.200]”, “past [0,201 - 0,400]”, “o‘rtacha [0,401 - 0,600]” va “yuqori [0,601 - 0,800]”, “juda yuqori [0,801 - 1,000]” integral baholash mezonlariga asoslangan uslubiy yondashuv ishlab chiqilgan. Shuningdek issiqxona xo‘jaliklari faoliyatini samaradorligini oshirishda ESG uslubidan foydalanish asoslari o‘z ichiga quyidagi yo‘nalishlar, ya’ni, ekologik barqarorlik; ijtimoiy mas’uliyat va oqilona boshqaruvni qamrab oladi (1-jadval).

1-jadval

Issiqxona xo‘jaliklari faoliyatini samaradorligini oshirishda ESG uslubidan foydalanish asoslari

O‘zgaruvchan koeffitsiyentlar nomi	Tavsiflanishi	Hisoblash uchun formula	Shartli belgilar
Atrof-muhitga yetkazilgan zarar uchun kompensatsiya (x_1)	Atmosferaning, suvning, havoning ifloslanish darajasi, hududlarning turli xil axlat va chiqindilar bilan ifloslanishi	$x_1 = 1 - \frac{ed}{av}$	ed - atrof-muhitga yetkazilgan zararni baholash; av - issiqxona xo‘jaligi tomonidan yaratilgan qo‘shimcha qiymat
Xo‘jalik yuritish jarayonini optimallashtirish va texnologik salohiyatni oshirishda aniq boshqaruv (x_2)	Aniq dehqonchilik yordamida ekinlar maxsuldorligi oshiradigan yuqori texnologiyali yechimlardan foydalanish: IoT, , robotlar va mashinalar, GIS, GPS, yerni masofadan zondlash, hosilni baholash texnologiyalari, o‘zgaruvchan ratsion usullar	$x_2 = \frac{n_i}{\sum N}$	n_i - ishlatiladigan yuqori texnologiyali yechimlar soni; N - foydalanish mumkin bo‘lgan yuqori texnologiyali yechimlar yig‘indisi
Yuqori texnologiyali ish o‘rinlarini yaratish (x_3)	Issiqxona xo‘jaligida yangi tashkil etilgan yuqori texnologiyali ish o‘rinlarining kutilayotgan o‘rtacha yillik o‘sish sur‘ati (o‘zgaruvchi koeffitsiyent bilan ifodalangan)		
Investitsion rentabellik (x_4)	Issiqxona xo‘jaliklarini tashkil etish va rivojlantirishga moliyaviy resurslarni kiritish rentabelligi	$x_4 = \frac{NPV}{IC}$	NPV - issiqxonalarini tashkil etishdan olingan sof joriy daromad; IC - issiqxona xo‘jaliklarini tashkil etishga yo‘naltirilgan investitsion kapital
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksporti (x_5)	Yangi tashkil etilgan issiqxona xo‘jaliklaridan olingan mahsulotlar hisobiga qishloq xo‘jaligi eksportining kutilayotgan o‘rtacha yillik o‘sish sur‘ati (o‘zgaruvchi koeffitsiyent bilan ifodalangan)		

Statistik o‘zgaruvchilar uchun hisoblash formulalari ishlab chiqilgan va bunda noaniq to‘plamga (Fuzzy Sets) kiritilgan barcha o‘zgaruvchilar [0; 1] hamda keyin ko‘rib chiqilayotgan loyqa to‘plam nazariyasi asosida kichik to‘plamlar quyidagi a‘zolik funksiyalariga ega bo‘ladi (2-jadval).

2-jadval

Issiqxona xo‘jaliklari faoliyatini samaradorligini oshirishda ESG uslubining integral baholash mezonlari

O‘zgaruvchan qiymatlarning integral baholash ko‘rsatkichlari	O‘zgaruvchining (x_i) kichik to‘plamga a‘zolik funksiyasi (mf)	Rang darajasi	Darajaning vazn qiymati (w_i)
ESG samaradorligi juda yomon [0,00; - 0,200]	$mf(1) = 10 * (0.1 - x_i)$	1	0,000
	$mf(2) = 10 * (0.2 - x_i)$	2	0,200
ESG talablariga past darajada javob beradi [0,201; - 0,400]	$mf(3) = 10 * (0.3 - x_i)$	3	0,201
	$mf(4) = 10 * (0.4 - x_i)$	4	0,400
Qisman ESG talablariga javob beradi [0,401; - 0,600]	$mf(5) = 10 * (0.5 - x_i)$	5	0,401
	$mf(6) = 10 * (0.6 - x_i)$	6	0,600
ESG samaradorligi yaxshi [0,601; - 0,800]	$mf(7) = 10 * (0.7 - x_i)$	7	0,601
	$mf(8) = 10 * (0.8 - x_i)$	8	0,800
ESG talablariga to‘liq mos keladi [0,801; - 1,000]	$mf(9) = 10 * (0.9 - x_i)$	9	0,801
	$mf(10) = 1$	10	1,000

Issiqxona xo‘jaliklarining samaradorlik qiymati (1) formula bo‘yicha hisoblangan oraliq koeffitsiyentni hisobga olgan holda, Lotfi Zadening loyqa to‘plamlar nazariyasi asosida kichik o‘zgaruvchilarning a‘zolik funksiyalarining vaznli qiymatlari yig‘indisi sifatida hisoblandi:

$$k_i = \frac{\sum mf_i}{\sum n} \quad (1)$$

Bu yerda:

k_i – oraliq koeffitsiyent; $\sum mf_i$ – loyqa to‘plamning kichik o‘zgaruvchilarini a‘zolik vazifasining hisoblangan qiymati; $\sum n$ issiqxona xo‘jaliklarining ESG samaradorligini baholashda hisobga olingan o‘zgaruvchilar soni.

Ko‘rib chiqilayotgan noaniq to‘plamga kiritilgan lingvistik o‘zgaruvchi tegishli bo‘lgan darajaning vazn qiymati (2) formula bo‘yicha daraja usuli bilan hisoblanadi:

$$w_i = \log_{\max R} r_i \quad (2)$$

Bu yerda:

w_i – oraliq koeffitsiyentning vazn qiymati; $\max R$ – o‘zgaruvchilarning kichik to‘plamlaridagi maksimal darajadagi daraja (x_i); r_i – i o‘zgaruvchilar kichik to‘plamlardagi rang darajasining qiymati (x_i).

“Issiqxona xo‘jaliklarini qurish uchun yangi texnologiyalarni joriy etish samaradorligi” loyqa to‘plamlar nazariyasi asosida kichik o‘zgaruvchilarning a‘zolik vazifalari hisoblangan qiymatlarini integral baholash ko‘rsatkichlari tizimi natijalari

		A‘zolik funksiyalari													
		$mf(1)$	$mf(2)$	$mf(3)$	$mf(4)$	$mf(5)$	$mf(6)$	$mf(7)$	$mf(8)$	$mf(9)$	$mf(10)$				
Toshkent viloyati	x_1	---	---	0,80	0,20	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---
	x_2	---	0,50	0,50	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---
	x_3	0,50	0,50	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---
	x_4	---	---	---	0,70	0,30	---	---	---	---	---	---	---	---	---
	x_5	0,70	0,30	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---
	k_i	0,24	0,26	0,26	0,18	0,06	0	0	0	0	0	0	0	0	0
	w_i	0,000	0,200	0,201	0,400	0,401	0,600	0,601	0,800	0,801	0,000	0,000	0,000	0,000	1,000
	To‘xtatildi k_i	0,000	0,078	0,124	0,108	0,042	0,000	0,000	0,000	0,000	0,000	0,000	0,000	0,000	0,000
	x_1	---	---	---	0,90	0,10	---	---	---	---	---	---	---	---	---
	x_2	---	0,30	0,70	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---
Samarqand viloyati	x_3	0,50	0,50	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---
	x_4	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---
	x_5	---	0,90	0,10	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---
	k_i	0,1	0,34	0,16	0,18	0,22	0	0	0	0	0	0	0	0	0
	w_i	0,000	0,200	0,201	0,400	0,401	0,600	0,601	0,800	0,801	0,000	0,000	0,000	0,000	1,000
	To‘xtatildi k_i	0,000	0,102	0,076	0,108	0,154	0,000	0,000	0,000	0,000	0,000	0,000	0,000	0,000	0,000
	x_1	---	---	---	0,40	0,60	---	---	---	---	---	---	---	---	---
	x_2	---	---	0,10	0,90	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---
	x_3	---	1,00	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---
	x_4	---	---	---	---	0,40	0,60	---	---	---	---	---	---	---	---
Buxoro viloyati	x_5	---	0,60	0,40	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---
	k_i	0	0,32	0,1	0,26	0,2	0,12	0	0	0	0	0	0	0	
	w_i	0,000	0,200	0,201	0,400	0,401	0,600	0,601	0,800	0,801	0,000	0,000	0,000	0,000	1,000
	To‘xtatildi k_i	0,000	0,096	0,048	0,157	0,140	0,093	0,000	0,000	0,000	0,000	0,000	0,000	0,000	

Hisoblash uchun birlamchi ma'lumotlar 30 ta issiqxona xo'jaligi bo'yicha to'plangan bo'lib, ular uchta hududga - Samarqand, Toshkent, Buxoro viloyatlaridagi issiqxona xo'jaliklariga taqsimlangan.

Tadqiqot jarayonida Toshkent, Samarqand va Buxoro viloyatlarida faoliyat ko'rsatayotgan ayrim issiqxona xo'jaliklarining faoliyatini samaradorligi tahlil qilinib, ularning yakuniy natijalari ESG uslubining integral baholash mezonlari asosida aniqlandi (4-jadval).

4-jadval

Issiqxona xo'jaliklari faoliyatini samaradorligini oshirishda ESG uslubining integral baholash mezonlarining natija ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar nomi	Mintaqalar		
	Toshkent	Samarqand	Buxoro
Atrof-muhitga yetkazilgan zararni qoplash (x_1)	0,22	0,31	0,44
Xo'jalikni boshqarish (yuritish) mahorati (x_2)	0,15	0,17	0,31
Yuqori texnologiyali ish o'rinlarini yaratish (x_3)	0,05	0,05	0,19
Investitsiyalarni rentabelligi (x_4)	0,33	0,40	0,54
Qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti (x_5)	0,03	0,11	0,14
ESG samaradorligi	35 %	44%	53%

Bunda:

a) Toshkent viloyatida - ESG samaradorlik qiymati 0,35; issiqxona xo'jaliklarining ijtimoiy va atrof-muhitni himoya qiluvchi korporativ boshqaruvga ega bo'lish ehtimoli 35,0%;

b) Samarqand viloyatida - ESG samaradorlik qiymati 0,44; issiqxona xo'jaliklarining ijtimoiy va atrof-muhitni himoya qiluvchi korporativ boshqaruvga ega bo'lish ehtimoli 44,0%;

v) Buxoro viloyatida - ESG samaradorlik qiymati 0,53; issiqxona xo'jaliklarining ijtimoiy va atrof-muhitni himoya qiluvchi korporativ boshqaruvga ega bo'lish ehtimoli 53,0% ni tashkil qiladi.

Mazkur hisob-kitoblar davomida olingan ma'lumotlar Buxoro viloyati issiqxona xo'jaliklarida qishloq xo'jaligini yuritish darajasining aniqligi, atrof-muhitga yetkazilishi mumkin bo'lgan zararni qoplanishi va yuqori rentabelligi natijasida yangi turdagi issiqxonalarini joriy etish samaradorligi va istiqboli yuqori ekanligini ko'rsatadi.

“Issiqxona xo'jaliklari faoliyatida tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni hisobga olish”⁷ nomli maqolada issiqxonada yetishtirilgan oziq-ovqat mahsulotlarini sotilishi natijasida olinadigan qo'shilgan qiymat miqdori va o'zgaruvchi indikatorlar o'rtasidagi qisqa va uzoq muddatli bog'liqlik indeks darajasiga bevosita ta'sir etuvchi (EVIEWES dasturi) omillarni tahlil qilish asosida oziq-ovqat xavfsizligi va oziq-ovqat mahsulotlari samaradorligini oshirish uchun

⁷ Accounting for Organizational and Economic Mechanisms in Greenhouse Activities

issiqxona klasterlari faoliyatini maqbullashtirishning tashkiliy – iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot davomida Jahon banki va BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) ma‘lumotlari asosida quyidagi omillar, ya‘ni: Y - qishloq xo‘jaligi, o‘rmonchilik va baliqchilik, qo‘shimcha qiymat, yalpi ichki mahsulotga nisbatan foizda (%); X1 - haydaladigan yerlar, umumiy yer maydoniga nisbatan %; X2 – o‘rmon yer maydoni, umumiy yer maydoniga nisbatan %; X3 - qishloq xo‘jaligida azot oksidi chiqindilari; X4 - Aholi jon boshiga YAIM; X5 - elektr energiyasidan foydalanish; X6 - Tovarlar va xizmatlar eksporti, YAIMning %; X7 - Qishloq xo‘jaligidagi bandlik, %; X8 - tovarlar va xizmatlar importi, yalpi ichki mahsulotga nisbatan %; X9 - to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar; X10 – erkin valyuta; X11 - Moliyaviy sektor tomonidan taqdim etiladigan ichki kredit; X12 - sabzavot yetishtirish tahlil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligida issiqxonalardan foydalanishda tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarning uzoq muddatli o‘zaro bog‘liqlik parametrlarini baholash uchun 7 endogen o‘zgaruvchini o‘z ichiga olgan regressiya koeffitsiyentlaridan foydalanamiz:

$$y_{it} = a_i + \delta_i t + \beta_1 x_{1it} + \beta_2 x_{2it} + \beta_3 x_{3it} + \beta_4 x_{4it} + \beta_5 x_{5it} + \beta_6 x_{6it} + \beta_7 x_{7it} + \varepsilon_{it}$$

Bu yerda - y_{it} , x_{1it} , va x_{2it}, \dots, x_{mit} lar i yilda t bo‘yicha mamlakatning o‘rganilgan ko‘rsatkichlarining qiymati; ε_{it} – integratsiya xatolari; a_i – individual effektlarga mos keladigan koeffitsiyentlar; $\delta_i t$ – individual tendensiyalar; β_k – integratsion vektorning tarkibiy qismlari.

Modelning zaruriy sharti quyidagilar bilan asoslanadi: 1. Panelni eng past kvadratlar usuli (PLSM) regressiyani baholash uchun ishlatiladi; 2. Barcha o‘zgaruvchilar uchun regressiya koeffitsiyentlari barcha mamlakatlar uchun (14 ta mamlakat) umumiydir; 3. Model individual tendensiyalar gipotezasini sinovdan o‘tkazadi; 4. Doimiy individual samaradorlik to‘g‘risidagi gipotezalar model ko‘rsatkichlari orqali sinovdan o‘tkaziladi. Ushbu model muhim determinant koeffitsiyentlarini baholashni taqdim etadi. Umuman olganda, iqtisodiy omillarni hisobga olinishi issiqxona xo‘jaliklari faoliyatining qo‘shilgan qiymatini yuqori bo‘lishiga ko‘proq ijobiy ta‘sir qiladi degan xulosani beradi.

Tadqiqot ishida «Panel birlikning ildiz sinovlari» natijalari keltirilgan bo‘lib, u ma‘lumotlar satrlari statsionar (birlik ildizsiz) yoki nostatsionar (birlik ildizga ega) ekanligini tekshirish uchun qo‘llaniladi. Tavsiya etilgan tahlil jarayonlari ikki qismdan iborat bo‘lib, ular: 1) Im – Panel birlikning ildiz test natijalari: H_0 (Nol gipoteza)- Satrda birlik ildiz mavjudligi; Shaxsiy birlik ildiz jarayoni uchun statistika –4.03; P-qiymat 0; Bu natijalar P-qiymat 0 bo‘lgani uchun H_0 gipoteza rad etiladi, ya‘ni ma‘lumotlar satrlari statsionar deb xulosa qilish mumkin. 2) Bir nechta panel testlari natijalari: Pesaran–Shin t-bar (W – statistika); Levin–Lin–Chu (t – statistika): –5.56, P-qiymat: 0; Breitung (t – statistika): –3.27, P-qiymat: 0; Hadri (Z – statistika): –4.59, P-qiymat: 0; H_0 : Satrda birlik ildiz mavjud emas. Bu

testlar ham ma'lumotlar panelini statsionar deb baholaydi, chunki barcha testlarda P-qiymat 0 ga teng yoki 0 dan kichik bo'lib, H_0 gipotezani rad etish uchun yetarlidir.


O'tkazilgan to'rtta sinovdan uchtasi model qoldiqlarining statsionarligini tasdiqladi, bu esa O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligida issiqxona mahsulotlarining qo'shilgan qiymatlari va ushbu determinantlar o'rtasida muvofiqlik mavjudligini ko'rsatdi. Uzoq muddatli munosabatlarni tasdiqlovchi natijalar uzoq muddatli va qisqa muddatli munosabatlarni "qishloq xo'jaligi mahsulotlarining qo'shimcha qiymatlari - iqtisodiy va iqlim omillarni" hisobga olgan holda muvozanatga keltirish mexanizmi bilan modelga o'tishga imkon beradi. Ushbu xususiy avtokorrelyatsiya vazifasi ikkinchi bosqichdan keyin xususiy avtokorrelyatsiya funksiyalarining pasayishini anglatadi (PACF). Shuning uchun, indikatorlar modelda ikkinchi maksimal kechikishning mavjudligini anglatadi. Gipoteza quyidagi ko'p omilli chiziqli regressiya modeli yordamida sinovdan o'tkazildi:

$$\Delta y_{lit} = \alpha_1^{(\Delta)} + \beta_1^{(\Delta)} \Delta y_{lit-1} + \beta_2^{(\Delta)} \Delta y_{2it-1} + \beta_3^{(\Delta)} y_{3it-1} + \delta_1^{(\Delta)} ECM_{it-1} + \varepsilon_{it}^{(\Delta)}$$

Ushbu model o'zgarish miqdori, qo'shilgan qiymat, QX bandlik, QXning joylashuvi, YAIM va korporativ kontentni boshqarish kabi o'zgaruvchilarni tashkil etib, statistik ko'rsatkichlari tahlil etilgan. Shuningdek o'zaro munosabatlarning qisqa muddatli jihatlari "qishloq xo'jaligida qo'shilgan qiymat - sabzavot yetishtirish indeksi" ya'ni Qo'shilgan qiymatdagi o'zgarishlar koeffitsiyent (Δ value added) -1.19 , $T = -3.11$, $P = 0.00$ (***) \rightarrow Statistik ahamiyatli va salbiy ta'sir qiladi. Qo'shilgan qiymatning kechikishli ta'siri (value added_{t-1}) koeffitsiyent -0.15 , $T = -2.19$, $P = 0.00$ (***) bir oz muddat o'tib, salbiy va ahamiyatli ta'sir qilishi mumkin. Qishloq xo'jaligidagi ish o'rinlarining o'zgarish (Δ employment in agriculture) koeffitsiyenti 0.22 , $T = 1.19$, $P = 0.23$ ahamiyatli emas. Ikki kechikishli ish bilan ta'minlanish (employment in agriculture_{t-2}) koeffitsiyenti -0.5 , $T = -2.56$, $P = 0.00$ (***) ahamiyatli salbiy ta'sir. YAIM o'zgarishi koeffitsiyent (Δ GDP) 16.48 , $T = 2.42$, $P = 0.00$ (***) katta, ijobiy va ahamiyatli ta'sir. Boshqaruv koeffitsiyenti -0.06 , $T = -2.56$, $P = 0.00$ (***) ahamiyatli salbiy ta'sir ko'rsatadi. Xatolarni tuzatish modeli (ECM_{t-1}) Koeffitsiyent -0.56 , $T = -2.56$, $P = 0.00$ (***) model tezda muvozanat holatiga qaytish xususiyatiga ega.

Tahlil natijalariga ko'ra, sabzavot yetishtirish indeksiga ta'sir etuvchi asosiy omillardan: YAIM (Δ GDP) va ish bilan ta'minlash (employment) mustahkam ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadi; qo'shilgan qiymat o'zgarishi va kechikishli ta'siri, shuningdek, korporativ boshqaruv salbiy ta'sir ko'rsatadi; ECM_{t-1} koeffitsiyenti salbiy va ahamiyatli bo'lib, tizim muvozanat holatiga qaytishga intilishini anglatadi. Model qishloq xo'jaligida qo'shilgan qiymatning qisqa muddatli o'zgarishlarini ishonchli tarzda asoslanishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida issiqxonalarining baholash parametrlari qishloq xo'jaligidagi bandlik, YAIM darajasi va qo'shilgan qiymat (YAIMga nisbatan %) o'rtasida qisqa va uzoq muddatli bog'liqlik mavjudligini tasdiqlaydi.



1-rasm. Issiqxona faoliyatining qo‘shimcha qiymatlari - impulsarga javob berish funksiyasi - O‘zbekiston Respublikasining sabzavot yetishtirish indeksi

1-rasmda O‘zbekistonda issiqxonalarda sabzavot mahsulotlarini yetishtirish sohasida qo‘shilgan qiymatning yillar davomidagi dinamikasi aks ettirilgan. Grafik ma‘lumotlari tahlilidan ko‘rinib turibdiki, ushbu sohada kuzatilgan o‘zgarishlar asosan ijobiy yo‘nalishga ega bo‘lib, qo‘shilgan qiymatning o‘sishi mamlakat qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida samaradorlikning oshishi, ishlab chiqarish hajmining kengayishi hamda bozor talablariga mos ravishda yangi texnologiyalarni joriy etish bilan bevosita bog‘liqdir. Ushbu nazariy asoslar Pedron testlari orqali tekshirildi va ularning natijalari ushbu xulosani qo‘llab-quvvatladi. Bundan tashqari, qo‘shilgan qiymatning hisoblanishi va tahlili ham ushbu jarayonda alohida ahamiyat kasb etdi, chunki u ishlab chiqarish jarayoni samaradorligini kompleks ko‘rsatkich sifatida namoyon etadi. Buning natijasida 5-jadvalda tartibga solingan holda ko‘rsatilgan miqdoriy baholar orqali O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash jarayonlari qanday rivojlanayotgani batafsil aks ettirilgan.

5-jadval 2019-2023 yillarda O‘zbekiston Respublikasida oziq-ovqat xavfsizligi global indeksini baholashning asosiy natijalari

Ijobiy (+)	Salbiy (-)
<ul style="list-style-type: none"> - Umumiy xarajatlardagi iste‘mol xarajatlari ulushini 0,8 foiz darajaga kamaytirish; - Qashshoqlik chegarasidan past darajada yashaydigan aholi ulushini 0,6 foizga kamaytirish; - Aholi jon boshiga YAIMning o‘shirishini 2779 dollarga yetkazish, aholi jon boshiga o‘rtacha oziq-ovqat ta‘minotini kuniga 32,8 kkalga oshirish, ratsionni diversifikatsiyalashni 1,8 foiz darajaga oshirish, ichimlik suvdan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lgan aholini 1,3 foiz darajaga oshirishi. - Qishloq xo‘jaligi importi uchun ta‘riflarni 1 foizga pasaytirish. 	<ul style="list-style-type: none"> - Doimiy oziq-ovqat yordamiga bog‘liqlikni baholashni 0,1 foiz darajaga oshirish; - Qishloq xo‘jaligida ilmiy-tadqiqot ishlari uchun davlat xarajatlari smetasini 0,1 foiz darajaga pasayishi; - Urbanizatsiya qobiliyatini 0,3% ga pasaytirish; - Oziq-ovqat yo‘qotishlarini 0,8 tonnaga oshirish;

Ushbu indeks O'zbekiston Respublikasida global oziq-ovqat xavfsizligi ko'rsatkichlarini biroz yaxshilagan deb taxmin qilish mumkin. Tashqi omillarga bog'liqlik bozor keskin o'zgarishlarga duch kelishi mumkin, bu klasterlar va boshqa xo'jalik subyektlarining barqarorligiga ta'sir qiladi.

Buning uchun ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish va zaxiralar yaratish maqsadga muvofiq. Shuningdek, tahlil natijalari qo'shilgan qiymat ko'rsatkichi va tanlangan omillar orasida uzoq muddatli muvozanatli bog'liqlik (ko-integratsiya) mavjudligini tasdiqladi. Bu esa vaqt o'tishi bilan ushbu o'zgaruvchilar bir-biriga mos ravishda o'zgarib borishini va omillardagi o'zgarishlar oxir-oqibat qo'shilgan qiymatda aks etishini anglatadi.

Shu bilan birga, agrar tarmoqda raqamli texnologiyalarni joriy qilish, innovatsion yechimlardan foydalanish va logistika tizimini takomillashtirish orqali bozor barqarorligini ta'minlash mumkin. Xususan, ishlab chiqarish jarayonida energiya samaradorligini oshirish va suv resurslaridan oqilona foydalanish kabi omillar ham qo'shilgan qiymat o'sishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, ichki bozor bilan birga tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish, eksport salohiyatini oshirish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish orqali oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim qadamlar qo'yiladi.

Ushbu tavsiya va ko'rsatmalardan kelib chiqib, issiqxona xo'jaliklari (klaster, fermer xo'jaligi, dehqon yoki tomorqa xo'jaliklari, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar va boshqalar) uchun qulay tadbirkorlik muhitini shakllantirish va davlat ko'magini kuchaytirish zarur. Bunda normativ-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, moliyaviy imtiyozlar yaratish hamda malakali kadrlar bilan ta'minlashga alohida e'tibor berilishi lozim.

Jahon banki va FAO ma'lumotlari asosida hamda tadqiqotlarimiz natijasida mazkur omillar tahlil qilindi va quyidagi natijalar olindi.

1-Bosqich: Omil ta'siri darajasini baholash (A - ta'sir kuchi indeksi) [< 0.05] 1ball juda zaif; [$0.05 - 0.15$]; 2 ball zaif; [$0.15 - 0.30$]; 3 ball o'rtacha [$0.30 - 0.50$]; 4 ball kuchli [> 0.50] 5 ball juda kuchli.

2-Bosqich: Statistik ahamiyat indeksi (B - ishonch darajasi indeksi) [$p < 0.01$] 3 ball juda ahamiyatli; [$0.01 \leq p < 0.05$] 2 ball ahamiyatli; [$0.05 \leq p < 0.10$] 1ball boshlang'ich; [$p \geq 0.10$] 0ball ahamiyatsiz.

3-Bosqich: Integral baholash indeksi bo'yicha (I) $I=A \times B$ agar [$0 - 2$] juda past, e'tiborsiz ta'sir; [$3 - 4$] past, nazoratda bo'lishi kerak; [$5 - 6$] o'rtacha, ijobiy imkoniyat mavjud; [$7 - 10$] kuchli, ustuvor omil sifatida; [> 10] strategik tizimli islohlarni zarur.

Issiqxonada qishloq xo'jaligi mahsulotlarining qo'shilgan qiymati va bog'liq bo'lgan parametrlar o'rtasidagi qisqa va uzoq muddatli munosabatlarni integral baholash mezonini natijalari keltirilgan. Ushbu natijalar asosida raqamli texnologiyalarni joriy qilish darajasi, resurslardan samarali foydalanish va institutsional to'siqlarni bartaraf etish orqali hududiy issiqxona xo'jaliklarini rivojlantirish imkoniyatlari aniqlandi. 6-jadvalda issiqxonada qishloq xo'jaligi mahsulotlarining qo'shilgan qiymati va bog'liq bo'lgan parametrlar o'rtasidagi qisqa va uzoq muddatli munosabatlarni integral baholash mezonini natijalari yoritilgan.

6-jadval

Issiqxonada qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining qo‘shilgan qiymati va bog‘liq bo‘lgan parametrlar o‘rtasidagi qisqa va uzoq muddatli munosabatlarni integral baholash mezon natijalari

Belgi	Omil nomi	Koeffitsent qiymati	p- qiymat (ishonch darajasi)	A (ta'sir kuchi balli)	B (ishonch darajasi balli)	Ta'sir yo'nalishi	Integral indeks (A × B) kategoriyasi va ta'sir davomiyligi
X1	Haydaladigan yerlar (umumiy yerga nisbatan %)	0.05	<0,1 Ahamiyatsiz	2	0	Ijobiy	0 – Juda past, O‘rtacha (3-6 oy)
X2	O‘rmon yer maydoni (umumiy yerga nisbatan %)	0.03	<0,1 Ahamiyatsiz	1	0	Ijobiy	0 – Juda past, O‘rtacha (3-6 oy)
X3	Azot oksid chiqindilari (q.x.)	-0.04	<0,1 Ahamiyatsiz	1	0	Manfiy	0 – Juda past, O‘rtacha (3-6 oy)
X4	Aholi jon boshiga YAİM	0.06	<0,1 Ahamiyatsiz	2	0	Ijobiy	0 – Juda past, O‘rtacha (3-6 oy)
X5	Elektr energiyasidan foydalanish	-0.28	0,01 Ahamiyatli (95%)	3	2	Manfiy	6 – O‘rtacha, O‘rtacha (3-6 oy)
X6	Eksport (YAİMga nisbatan %)	0.07	0,1 Ahamiyatsiz	2	0	Ijobiy	0 – Juda past, O‘rtacha (3-6 oy)
X7	Қишлоқ хўжалигидаги бандлик	0.02	0,1 Ahamiyatsiz	1	0	Ijobiy	0 – Juda past, O‘rtacha (3-6 oy)
X8	Импорт (YAİMga nisbatan %)	-0.05	0,01 Ahamiyatli (95%)	2	2	Manfiy	4 – Past, O‘rtacha (3-6 oy)
X9	Tўғридан-tўғри хорижий инвестициялар	-0.9	0,01 Ahamiyatli (95%)	5	2	Manfiy	10 – Kuchli, Uzoq (6+ oy)
X10	Эркин валюта (YAİMga nisbatan %)	-0.12	0,05 Boshlang‘ich ahamiyat (90%)	2	1	Manfiy	2 – Juda past, O‘rtacha (3-6 oy)
X11	Ички кредит (молиявий сектордан)	0.29	0,0 juda ahamiyatli (99%)	3	3	Ijobiy	9 – Kuchli, O‘rtacha (3-6 oy)
X12	Сабзаёт етиштириш индекси	0.12	0,0 juda ahamiyatli (99%)	2	3	Ijobiy	6 – O‘rtacha, O‘rtacha (3-6 oy)

Shuningdek, tahlil natijalari qo‘shilgan qiymat ko‘rsatkichi va tanlangan omillar orasida uzoq muddatli muvozanatli bog‘liqlik (ko-integratsiya) mavjudligini tasdiqladi. Bu esa vaqt o‘tishi bilan ushbu o‘zgaruvchilar bir-biriga mos ravishda o‘zgarib borishini va omillardagi o‘zgarishlar oxir-oqibat qo‘shilgan qiymatda aks etishini anglatadi. Ushbu tavsiya va ko‘rsatmalardan kelib chiqib, istiqbolda issiqxona klasterlarida qulay biznes muhitini shakllantirish va davlat ko‘magini kuchaytirish, bunda normativ-huquqiy qo‘llab-quvvatlash, moliyaviy imtiyozlar hamda malakali kadrlar bilan ta‘minlashga alohida e‘tibor berilishi maqsadga muvofiq.

Innovatsion texnologiyalarni joriy etish va ilmiy-tadqiqotlarga tayangan holda faoliyat ko‘rsatish klasterlarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri

bo'lishi kerak. Zamonaviy issiqxona texnologiyalari ekinlar hosildorligi va mahsulot sifatini oshirish orqali xo'jaliklarning qo'shimcha qiymat yaratish salohiyatini yuksaltiradi.

Klasterlar tarkibiga fermer va dehqon xo'jaliklarini keng jalb etish, ular o'rtasida o'zaro kooperatsiya munosabatlarini kuchaytirish lozim. Bu yirik klaster korxonalarini bilan xomashyo mahsuloti ishlab chiqarishga ixtisoslashgan kichik xo'jalik subyektlari o'rtasida uzviy manfaatli hamkorlikni ta'minlab, ishlab chiqarishdan boshlab qayta ishlash va sotishgacha bo'lgan jarayonlarni yagona tizimli zanjirga birlashtiradi.

“Qishloq xo'jaligi subyektlarining raqamli transformatsiyalarga tayyorlik darajasi bo'yicha ko'p bosqichli diagnostikasi”⁸ nomli maqolada issiqxona xo'jaliklarining raqamli transformatsiyalarga tayyorgarlik darajasi, zamonaviy issiqxona xo'jaliklarini hududiy rivojlantirish indikatorlari, maqbul modellar, issiqxona xo'jaliklarida raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalarni joriy qilishni rivojlantirish modeli hamda ta'sirini baholashning ilmiy-uslubiy asoslari yoritilgan.

Tadqiqot ishida issiqxona xo'jaliklarida raqamli transformatsiya jarayonlarini amalga oshirishdagi mavjud infratuzilma subyektlari faoliyati, kadrlar salohiyati va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish darajasi tahlil qilingan. Raqamli yechimlarni joriy etish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurslardan tejimli foydalanish, mahsulot sifatini nazorat qilish hamda bozor talablariga muvofiq javob berish imkoniyatlari ko'rsatib berilgan.

Mazkur maqolada hududiy xususiyatlar va iqlim sharoitiga moslashtirilgan raqamli texnologiyalar to'plamini ishlab chiqishning ustuvor yo'nalishlari belgilangan. Issiqxona xo'jaliklarining raqamlashuv darajasini baholash uchun kompleks ko'rsatkichlar tizimi, baholash shkalasi va diagnostik algoritmi taklif etilgan. Ilmiy-nazariy tahlillar asosida, innovatsion texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy va ekologik samaradorligi, shuningdek, raqamli transformatsiyaning qishloq xo'jaligi klasterlarini rivojlantirishdagi ijobiy ta'siri aniqlangan. Taklif etilgan modellar va tavsiyalar amaliy jihatdan fermerlar, agrobiznes subyektlari va mahalliy hokimiyat organlari faoliyatida keng miqyosda qo'llanilishi mumkin.

Issiqxona xo'jaliklarining raqamli transformatsiyalarga tayyorgarlik darajasiga ko'ra ko'p bosqichli tashxis qo'yadigan raqamli tahlil yondoshuvi “Green capital” va “Bek cluster” mas'uliyati cheklangan jamiyatlarda olib borildi. Ushbu jarayon beshta o'zaro bog'liq bosqichda (tanlash, sifat, mazmun, mavzu-tarmoq, dastur-tavsiya) va yettita baholash bo'limini o'z ichiga oladi hamda ushbu taklif etilayotgan ko'rsatkichlar reyting tizimi orqali ekspert va miqdoriy baholash uslublari orqali baholandi.

Indikatorlarning integral ko'rsatkichi ekstensiv 0 dan 17 ballgacha, o'rtacha – 17-27, intensiv – 27 ∞ balldan ortiq diagnostika qilindi (7-jadval).

⁸ [\(PDF\) Multi-level diagnostics of agrarian economy subjects according to the degree of readiness for digital transformations](#)

7-jadval

**Issiqxona xo‘jaliklarining raqamli transformatsiyalarga tayyorlik darajasi miqdoriy DIGITAL tahlil natijalarining
chegara ko‘rsatkichlari darajalari (chegara ko‘rsatkichlari Fibonachchi raqamlar ketma-ketligiga asoslangan "oltin
qiymat" qoidasi bilan shu asosda ekspert intervyu savollari orqali aniqlab olindi)**

№	O‘rganilgan hudud/ tahlil etilgan indikator nomi	Chegara ko‘rsatkichlari darajasi				“Green capital” MCHJ			“Бек капитал” MCHJ QK		
		Intensiv ≥ (I)	O‘rta (0, 618 ×A) (M)	Eksten- siv ≤ (E)	Ko‘rsatkich mazmuni	Dara jasi	Ball	Ko‘rsatkich mazmuni	Darajasi	Ball	
D - defitsitlar	Raqamli texnologiyalarga sarflanish intensivligi (moliyaviy taqchillik), %	8	5-8	5	2, 03	E	1	3.15	E	1	
	Malakali kadrlar %	2	1-2	1	0.3	E	1	0.2	E	1	
	AKTga investitsiyalar, %	20	10-20	10	12	M	2	17	M	2	
I - innovatsiya	Moliyaviy aktivlar, mln. so‘m	300	100- 300	100	24.7	E	1	65.4	E	1	
	Innovatsiyalarni qo‘llash natijasida xarajatlarni kamaytirish, %	20	10-20	10	0	E	1	0	E	1	
	Innovatsion faollik, %	8	5-8	5	0.1	E	1	0	E	1	
G - yer, bio resurslar, iqlim	Biologik asosiy vositalarga xarajatlar ulushi, %	10	5-10	5	9,7	M	2	5, 4	M	2	
	Yer va biologik resurslar holatini baholash xarajatlari, yiliga %	5	2-5	2	3	M	2	0	E	1	
	Infratuzilmaning barqarorligi, %	5	1-5	1	2	M	2	4	M	2	
T - texnika, texnologiya	Texnologik jihozlarga xarajatlar, %	1	0,5-1	0, 5	0,04	E	1	0,27	E	1	
	Yuqori texnologiyali mahsulotlar ICH dinamikasi %	5	2-5	2	4, 27	M	2	11.4	I	3	
	AKT bo‘yicha malaka oshirish, %	10	5-10	5	8	M	2	11	I	3	
A - ma‘muriy xarajatlar	Trening, %	10	5-10	5	0	E	1	14	I	3	
	Komputer dasturlar, %	10	5-10	5	7.6	M	2	11.4	I	3	
L - qonunchilik tizimi	Ichki standartlar va qoidalarni ishlab chiqish, dona.	5	1-5	1	0	E	1	0	E	1	
	Umumiy ko‘rsatkich	x	x	x	x	o‘rtacha	22	x	o‘rtacha	26	

Ushbu jadvalda issiqxona xo'jaliklarining raqamli transformatsiyalarga tayyorlik darajasi miqdoriy DIGITAL tahlil asosida baholangan va natijalar Fibonachchi ketma-ketligiga asoslangan "oltin qiymat" (0,618) qoidasi orqali chegara ko'rsatkichlari bilan solishtirilgan.

Chegara ko'rsatkichlari: I (Intensiv) - yuqori darajadagi ko'rsatkich, ya'ni tarmoqda raqamli texnologiyalar va innovatsiyalarni faol qo'llash; M (O'rta) - o'rtacha darajada rivojlangan ko'rsatkichi bo'lib rivojlanish uchun qo'shimcha resurs va innovatsiyalar zarur; E (Ekstensiv) - past darajadagi ko'rsatkich, raqamli transformatsiyaga tayyorgarlik zaif, moliyaviy yoki infratuzilmaviy cheklovlar mavjud.

“Green Capital” MCHJ ko'pgina ko'rsatkichlarda E — ekstensiv darajada bo'lib, ayniqsa kadrlar, innovatsiyalar va texnologik jihozlarga investitsiya past. Bir necha ko'rsatkichlarda M darajasi bor (masalan, AKT investitsiyasi, biologik resurslar va infratuzilma). Intensiv darajadagi ko'rsatkichlar deyarli mavjud emas.

“Bek Cluster” MCHJ umumiy holatda ham o'rtacha past darajada, ammo ayrim ko'rsatkichlarda (“Uqori texnologiyali mahsulotlar ICH dinamikasi”, “AKT bo'yicha malaka oshirish”, “Trening”, “Kompyuter dasturlar”) I — intensiv darajasiga chiqishga erishgan. Bu xo'jalikda kadrlar tayyorgarligi va yuqori texnologiyalar joriy etish bo'yicha faollik yuqoriroq.

Ikkala xo'jalikda ham raqamli transformatsiyaning aksariyat yo'nalishlarida zaif nuqtalari, ayniqsa moliyaviy taqchilik, kadrlar malakasi va innovatsiyalarni qo'llashda mavjud. “Bek Cluster” ayrim sohalarida tezkor o'sish salohiyatiga ega, “Green Capital” esa umumiy raqamli tayyorgarlikni oshirish uchun ko'proq resurs va biznes strategiyalar ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

8-jadval

Scoring DIGITAL tahlili natijalari

O'rganilgan hudud/ tahlil etilgan indikator nomi	Samarqand viloyati “Green capital” MCHJ		Sirdaryo viloyati “Bek klaster” MCHJ QK	
	Ball	Daraja	Ball	Daraja
D - defitsitlar	5.5	O'rta	6.0	Intensiv
I - innovatsiya	3.0	O'rta	4.0	Intensiv
G - yer, resurs, iqlim	2.5	Ekstensiv	6.0	Intensiv
I - infratuzilma	3.5	O'rta	4.5	Intensiv
T - texnika , texnologiya	1.5	Ekstensiv	2.5	O'rta
A - ma'muriy jarayonlar	2.5	Ekstensiv	3.0	O'rta
L - qonunchilik	1.0	Ekstensiv	2.0	O'rta
Ballar yig'indisi	19.5	O'rta	28.0	Intensiv

Scoring DIGITAL tahlili natijalari 8-jadval bo'yicha Sirdaryo viloyatidagi “Bek cluster” MCHJ QKning raqamli profili 28.0 ballni, Samarqand viloyati faoliyat yuritayotgan “Green capital” MCHJ 19.5 ball ko'rsatkichlariga ega bo'ldi.

DIGITAL tahlili natijalari 5-jadval bo'yicha Sirdaryo viloyatidagi "Bek cluster" MCHJ QKning raqamli profili Samarqand viloyati faoliyat yuritayotgan "Green capital" MCHJ qaraganda 8,5 ballga yuqoriligi ko'rishimiz mumkin.

Tadqiqot davomida biz hududlardagi raqamlashtirish darajasini baholash uchun eng mos ko'rsatkichlarni tanladik (9-jadval). Barcha ko'rsatkichlar yettita analitik blokga bo'lingan, ular doirasida ham DIGITAL tahlil o'tkazildi. Umuman olganda, Qoraqalpog'iston Respublikasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlarining arzonligi respublika bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori ekanligini qayd etish lozim.

9- jadval

Issiqxona xo'jaliklarini viloyatlar kesimida "D - defitsitlar" va "I - innovatsiyalar" bloklarini baholash ko'rsatkichlari

Hududlar nomi	D - дефицитлар						I - инновация					
	X1	X2	X3	X4	X5	X6	X7	X8	X9	X10	X11	X12
Toshkent	41.2	190.48	571,48	1.39	0,57	58.4	1.36	50.1	39.8	143.2	20.1	41.2
Surxondaryo	32.4	158.06	560.3	1.25	0,5	50.1	0,25	11.7	38.4	47.6	13.4	32.4
Qoraqalpog'iston Respublikasi	18.1	...	661.6	1.88	...	51	0,15	10,7	32	46	5.7	18.1
Buxoro	33.8	140	1000	2.86	0,24	54.2	0,11	9.3	9.6	-	15.3	33.8
Jizzax	27.9	163	491.23	1.13	0,48	56,1	0,47	17.9	10.3	71.6	11.9	27.9
Navoiy	38.4	163	498.33	1.54	0,48	52.9	0,68	17	3.1	17.2	15.6	38.4
Samarqand	32,7	163	572.08	1.58	0,48	49.1	0,27	11.4	29.7	126.8	11.6	32,7
Sirdaryo	22.4	...	1930.56	1.08	0,22	29.6	0,15	6.9	32.8	11.8	5	22.4
Farg'ona	50.2	174	408.52	0,95	0,56	57.6	0,28	12.6	12.6	12.6	12.6	12.6

Izox: X1 – er usti raqamli teleeshittirishning bitta teledasturini olish imkoniyatiga ega bo'lgan aholi ulushi (O'zbekiston Telekommunikatsiya va ommaviy kommunikatsiyalar vazirligining yil yakuni bo'yicha ma'lumotlari; aholi umumiy soniga nisbatan foizda);
X2 - turidan, oyidan qat'i nazar, doimiy foydalanish uchun abonent liniyasini taqdim etish tarifi (davra oxirida, ming so'm);
X3 - Internetga kirish uchun abonent to'lovi, sum / oy;
X4 - uyali aloqa orqali mahalliy ulanishni (suhbatni) ta'minlash, daqiqa (davra oxirida, ming so'm);
X5 - vaqt bo'yicha to'lov tizimi bilan mahalliy telefon aloqasining bir daqiqasi uchun tarif, daqiqa (davra oxirida, ming so'm);
X6 - 2 Mbit/s dan kam tezlikda Internetga ulanishdan foydalanuvchi tashkilotlarning umumiy tashkilotlar sonidagi ulushi,%;
X7 ilmiy-tadqiqot va innovatsiyalar uchun resurs bazasi hisoblanadi. Ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar uchun ichki xarajatlar ulushi, yalpi hududiy mahsulotga (YaHM) %da;
X 8 - institusional muhit. Iqtisodiyotda band bo'lgan har 10 000 kishiga to'g'ri keladigan ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini olib borgan tadqiqotchilar soni, kishilar;
X 9 - iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga xarajatlarning umumiy hajmidagi ulushi, %;
X 10 - ilmiy-tadqiqot va innovatsiyalarning samaradorligi. O'zbekistonlik talabnoma beruvchilarga O'zBpatent tomonidan berilgan ixtirolarga patentlar soni, aholining 1 million kishisiga, dona;
X 11 - Интернет тармоғи орқали ишлаб чиқарилган товарлар (ишлар, хизматлар) учун буюртмалар олган ташкилотларнинг ўрганилган ташкилотларнинг умумий сонидagi улуши, %;
X 12 - Интернет тармоғида товарларга (ишларга, хизматларга) буюртма берган ташкилотларнинг сўровда қатнашган ташкилотларнинг умумий сонидagi улуши, %.

Innovatsiyalarga kelsak, bu erda Qoraqalpog'iston Respublikasi o'rtacha respublika ko'rsatkichlaridan sezilarli darajada past.

Shu bilan birga, Farg'ona vodiysi iqtisodiyotni rivojlantirishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga yo'naltirilgan xarajatlar ulushi, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga sarflangan ichki xarajatlarning

umumiy hajmida, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga ajratilgan mablag'lar ulushi kabi ko'rsatkichlar bo'yicha etakchi o'rinni egallaydi.

"G – er resurslari, iqlim va biologik resurslar" ko'rsatkichlari blokida mintaqaning ustunligi yanada yaqqol ko'zga tashlanadi.

Ko'rsatkichning nisbatan past qiymati faqat tovarlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqarishda ekologik xavfsizlikni yaxshilash va atmosferaga karbonat angidrid (CO₂) chiqindilarini kamaytirish, shu jumladan raqamli texnologiyalardan foydalanish bilan bog'liq innovasiyalarni joriy etgan tashkilotlar ulushiga nisbatan kuzatiladi.

Ushbu ko'rsatkichlar blokida Qoraqalpog'iston Respublikasi va ayrim viloyatlarning o'rtacha respublika darajasidan sezilarli darajada orqada qolishi ham kuzatilmoqda. Faqat Farg'ona vodiysi viloyatlari o'rtacha ko'rsatkichdan yuqoriroq (to'qqizta ko'rsatkich bo'yicha) bo'lsa, qolgan viloyatlar sezilarli darajada o'rtacha ko'rsatkichdan past darajada. Bu ma'lum darajada Farg'ona vodiysining butun makromintaqada raqamli texnologiyalarni rivojlantirishdagi etakchi o'rinlarda ekanligini tasdiqlaydi.

Har bir murakkab vaziyatni texnologik-iqtisodiy echimini izlash xo'jalik yurituvchi va ilmiy izlanuvchilarning tadqiqot vazifasiga aylandi. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, tavsiya etilayotgan 3D nurli kuzatuv modellarini issiqxonaning tom qismini burchak yo'nalishiga mos (vertikal va gorizantal) o'rnatilishining iqtisodiy samaradorligi, jumladan issiqxonada qish mavsumida 25%dan ko'proq tabiiy yorug'lik olish va aksincha, elektr energiya sarfini 15% gacha tejash imkoniyati yaratildi. Tadqiqot natijasida LED yoritgichlar yoz-qish oylarida energiya sarfini 40%gacha kamaytirish va sabzavot ekinlarining kasallanishini oldini olishga yordam berdi. Yuqori darajada izolyasiyalangan issiqxonada bodring ekinlari uchun issiqlik energiyasini 80% tejashga imkoniyat yaratadi. Issiqxona ekotizimining yana bir konsepsiyasi - baland bo'lmagan issiqxonalarda tabiiy quyosh nurlaridan maksimal darajada foydalanishga qaratilgan. 3D nurli kuzatuv modellari issiqxona tomining burchak yo'nalishlariga ta'sir qiladi.

Yuqori haroratlar sabzavot ekinlarining ko'p sonli otalik gullarini shakllanishiga yordam beradi. Shu bilan birga, onalik gullarining shakllanishi uchun 15°C tungi harorat zarur bo'ladi. Sabzavot ekinlari havo va tuproq namligiga talabchan va bunda tuproq namligining 50%ga kamayishi mos ravishda hosilning pasayishiga olib keladi. Ekinlar ekilgan tuproqning namlik darajasi kamida 80% bo'lishi kerak.

Sabzavot ekinlarining urug'lari va ko'chatlarini nurlantirish uchun avtomatik dozlashni barqarorlashtirish algoritmlari va mikroiklimni tartibga solish dasturini O'zbekiston Respublikasida boshqa ekinlarda ham qo'llash imkoniyatlarini o'rganish tavsiya etiladi.

Tadqiqot natijalariga asosan Toshkent, Farg'ona, Namangan va Andijon viloyatlaridagi issiqxona xo'jaliklarida kelgusida bodring etishtirishda ochiq va tabiiy havodan foydalanish uchun mo'ljallangan texnologiya va jihozlarni sinovdan o'tkazish maqsadga muvofiq.

Shu bilan birga, izlanish natijalari kelajakda issiqxona xo‘jaliklarini raqamlashtirish, resurslardan samarali foydalanish va ekologik barqarorlikni ta‘minlash yo‘lida ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish imkoniyatini ko‘rsatdi.

10-jadval

Bodring ekini misolida 3D nurli kuzatuv modellarini issiqxonaning tom qismini burchak yo‘nalishiga mos o‘rnatilishining texnik va iqtisodiy samaradorligi ko‘rsatkichlari (%)

Hudud va xo‘jalik nomi	LED yoritgichlarining energiya tejashi %	Sabzavot ekinlarining kasallanishini oldini olish	Quyoshli \ Quyoshsiz vaqt (kun, soat)	Elektr va gaz energiyani tejash	*PAR (W/m ²) \ (μmol·m ⁻² ·s ⁻¹)	Tabiiy yorug‘lik olish	Iqtisodiy samaradorligi
Toshkent, Greenhouse Innovations	39	yuqori	8-10 \ 14-16	21 / 11	250-320 \ 450-600	27-28	31%
Samarqand, AgroTech Solutions	38	o‘rtacha	8-10 \ 14-16	19 / 10	220-300 \ 420-580	23-24	29%
Farg‘ona, EcoGrow Farms	41	yuqori	8-10 \ 14-16	22 / 12	240-310 \ 440-610	25-27	32%
Namangan, Future Harvest	37	o‘rtacha	8-10 \ 14-16	18 / 9	210-290 \ 410-570	22-23	28%
Andijon, Smart Greenhouse	40	yuqori	8-10 \ 14-16	20 / 10	230-305 \ 430-590	25-26	31%

*Izox: Fotosintetik aktiv nurlanish (PAR) o‘lchovlari energiya birliklarida (W/m²) va fotonlar soni birliklarida (μmol·m⁻²·s⁻¹) ifodalanishi mumkin. Bu ikki o‘lchovning farqi quyidagi: Energiya birliklari (W/m²): bu o‘lchov energiya miqdorini ifodalaydi. U fotosintetik organizmlar uchun energiya balansini hisoblashda muhimdir. Masalan, PAR energiya birliklarida o‘lchangandan keyin, u W/m² birliklarida ifodalanadi; Fotonlar soni birliklari (μmol·m⁻²·s⁻¹): Bu o‘lchov fotosintetik jarayonda ishtirok etuvchi fotonlar sonini ifodalaydi. Fotosintez jarayoni fotonlar soniga bog‘liq bo‘lgani uchun, bu o‘lchov ko‘proq ahamiyatga ega. Masalan, PAR fotonlar soni birliklarida o‘lchangandan keyin, u μmol·m⁻²·s⁻¹ birliklarida ifodalanadi.

Ushbu jadval umumiy tavsiyalar asosida tuzilgan bo‘lib, har bir viloyatdagi aniq sharoitlar va talablar asosida o‘zgarishi mumkin. LED yoritgichlarining energiya tejashi 40%gacha va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichi 30 foizni tashkil etadi. Zamonaviy issiqxonalarda mikroiklim xususiyatlarini saqlash va nazorat qilishning yangi texnologiyalari orasida “Angar” tipidagi issiqxonalarda ekinlarning vegetasiyasi davrida o‘sishi va sifatli hosil berishi uchun tabiiy holatni yuqori darajada saqlash, ekinlarga mayin shamol yo‘naltirish va havo oqimining yo‘nalishini o‘zgartirmaslik, barqaror harorat, namlik, karbonat angidrid miqdori

va konsentraciyasi, mavjud energiya sarfini maqbullashtirish, ekinlar uchun suvning stress ta'sir darajalarining texnik-iqtisodiy asoslanishi tahlil etildi.

Issiqxonada mikroiklim sharoitini yagona nazoratda boshqarish birxil muhitni kafolatlamaydi, shuningdek o'zgaruvchan muhitlar, masalan, harorat, namlik, yorug'lik, SO₂, energiya va boshqalar mikroiklimga ta'sirini optimal bashorat qilish va issiqxona qurilishidan oldin texnik-iqtisodiy holatini ilmiy asoslash maqsadga muvofiq.

11-jadval

Angar tipidagi issiqxonaning texnik – iqtisodiy ko'rsatkichlari⁹

Hududlar nomi	Izoh \ tavsiya belgisi	Iqlim \ Suv manbalari	Bozor talablari \ logistika	Qurilish xarajatlari \ Energiya manbalari	Daromad ko'rsatkichi	Texnik xizmat ko'rsatish imkoniyatlari
Toshkent	Iqlim va bozor talablari	Mo'tadil \ Etarli	Yuqori \ Rivojlangan	O'rtacha \ Etarli **	Yuqori	Yuqori
Samarqand	Qishloq xo'jaligi rivojlangan	Mo'tadil \ Etarli	Yuqori \ Rivojlangan	O'rtacha \ Etarli **	Yuqori	Yuqori
Buxoro	Qurg'oqchilik va suv tanqisligi	Qurg'oq \ Kam	Past \ sust	Past \ Kam *	Past	Past
Qashqadaryo	Qishloq xo'jaligi rivojlangan	Mo'tadil \ Etarli	Yuqori \ Rivojlangan	O'rtacha \ Etarli **	Yuqori	Yuqori
Farg'ona	Iqlim va bozor talablari	Mo'tadil \ Etarli	Yuqori \ Rivojlangan	O'rtacha \ Etarli **	Yuqori	Yuqori
Namangan	Qishloq xo'jaligi rivojlangan	Mo'tadil \ Etarli	Yuqori \ Rivojlangan	O'rtacha \ Etarli **	Yuqori	Yuqori
Andijon	Iqlim va bozor talablari	Mo'tadil \ Etarli	Yuqori \ Rivojlangan	O'rtacha \ Etarli **	Yuqori	Yuqori
Surxondaryo	Qurg'oqchilik va suv tanqisligi	Qurg'oq \ Kam	Past \ sust	Past \ Kam *	Past	Past
Xorazm	Qurg'oqchilik va suv tanqisligi	Qurg'oq \ Kam	Past \ sust	Past \ Kam *	Past	Past
Qoraqalpog'iston Res-si	Qurg'oqchilik va suv tanqisligi	Qurg'oq \ Kam	Past \ sust	Past \ Kam *	Past	Past

Izox: qurilish xarajatlari m² 30-50*, 50-70**

Ushbu jadval umumiy tavsiyalar asosida tuzilgan bo'lib, har bir mintaqadagi aniq sharoitlar va talablar asosida o'zgarishi ehtimoli mavjud. Issiqxonaning texnik-iqtisodiy holatini o'rganib chiqib, optimal sharoitlarni ta'minlash bo'yicha ushbu parametrlarni nazorat qilish muhimdir.

⁹ Durmanov, A., et al. (2023). Application of electrical technologies to increase the productivity of cucumber in protected ground structures. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 420). EDP Sciences. <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202342001002>

Bu jadvalda an'anaviy va tavsiya etilayotgan issiqxonalarining iqtisodiy samaradorligi bayon qilingan.

Tavsiya etilayotgan issiqxonalar energiya sarfini maqbullashtirish va yuqori hosildorlikni ta'minlash orqali iqtisodiy jihatdan samarali, shuningdek, ekologik tozalikni ham ta'minlaydi.

12-jadval

An'anaviy va tavsiya etilayotgan issiqxonalarining iqtisodiy samaradorligi

Parametr ko'rsatkichlari	An'anaviy issiqxona	Tavsiya etilayotgan issiqxona
Harorat	20-25°C	20-25°C
Namlik	60-70%	60-70%
Yorug'lik	10,000-15,000 люкс	10,000-15,000 люкс
CO ² konsentratsiyasi	300-400 ppm	300-400 ppm
Narxlar (USD)	1,000-1,500	800-1,200
Energiya sarfi	Yuqori	Optimal
Hosildorlik	O'rtacha	Yuqori
Ekologik tozalik	O'rtacha	Yuqori

Bu erda tejamkorlikning asosiy omillari: energiya sarfi - tavsiya etilayotgan issiqxonalar energiya sarfini kamaytirish orqali an'anaviy issiqxonalariga nisbatan 20-30% tejamkorlikni ta'minlaydi; hosildorlik - yuqori hosildorlik tufayli tavsiya etilayotgan issiqxonalarda hosildorlik 10-15%ga oshadi; ekologik tozalik - ekotexnologiyalardan foydalanish orqali mahsulot sifati yaxshilanadi va bu ham iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.

Umuman olganda, tavsiya etilayotgan issiqxonalar an'anaviy issiqxonalariga nisbatan 30-45% tejamkorlikni ta'minlaydi. Bu esa qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish va yuqori sifatli mahsulotlar etishtirish uchun muhim ahamiyatga ega.

“Issiqxonalarining barqaror rivojlanishi: asosiy omillar va ularni ta'sirlarni o'rganish”¹⁰ nomli maqolada O'zbekistonda issiqxonalarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash tadqiqot ishining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Tadqiqotning konseptual modelida iqtisodiy samaradorlik, infratuzilma xizmatlarining qo'llab-quvvatlanishi, yordam beruvchi omillar va raqobat ta'siri issiqxona rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi kabi omillarni qamrab olgan. Ushbu tadqiqot bo'yicha so'rovnoma Toshkent, Sirdaryo, Jizzax va Buxoro viloyatlaridagi issiqxonalarda faoliyat olib boruvchi 200 nafar shaxs o'rtasida o'tkazildi.

So'rovnomalar bo'yicha statistik tahlil Smart PLS 4 dasturiy ta'minotidan foydalangan holda imperik sinov testlari o'tkazildi va baholandi. Ushbu keltirilgan o'lchov modeli test natijalari tadqiqot o'zgaruvchilari uchun ijobiy natijalarni ko'rsatdi.

¹⁰ Sustainable Growth of Greenhouses: Investigating Key Enablers and Impacts | Emerging Science Journal

Kuzatilgan o'zgaruvchilar uchun barcha koeffisient yuklari 0,7 chegarasidan yuqori bo'lib, ularning tegishli yashirin o'zgaruvchilari bilan kuchli aloqalarni ko'rsatadi. Bundan tashqari, barcha omillar yuklamalari statistik ahamiyatga ega ($P < 0,05$), o'lchov modelining ishonchliligi va haqiqiylikini yanada tasdiqlaydi (13-jadval).

13-jadval

O'zgaruvchilar modelining test natijalari

Savollar	Omllarning ta'sir darajasi	Og'ishish standarti	<i>P</i> – qiymat	Kron-baxa alfa	AVE
Iqtisodiy manfaatdorlik (EV1- EV10)	0,803	0,933	0,0242	0,902	0,66
Infratuzilma (SIS1- SIS11)	0,7771	0,8734	0,0306	0,890	0,75
Issiqxonadan foydalanishning osonligi omili (E1- E13)	0,717	1,3977	0,0298	0,855	0,73
Raqobatchilar ta'siri (CI1- CI9)	0,8153	1,2657	0,0227	0,833	0,77
Issiqxona xo'jaligi rivoji quyidagi omillarga bog'liq (GD1- GD14)	0,813	1,2757	0,0275	0,934	0,83

Tadqiqotdagi barcha o'zgaruvchilar uchun Kronbax alfa qiymatlari qabul qilinadigan chegaradan, ya'ni 0,7 koeffisientdan oshadi. Bu tadqiqot uchun to'plangan ma'lumotlarning ishonchliligini ta'minlaydi va tegishli o'lchov modelining umumiy haqiqiylikini mustahkamlaydi.

14-jadval


Gipotezaning testi natijalari

	Gipoteza	β	Стандарт оғиш	<i>P</i> қиймати	Натижа
H1	Iqtisodiy manfaatdorlik → Issiqxonalarni rivojlantirish	0,571	0,933	0,434	Tasdiqlanmagan
H2	Infratuzilma → Issiqxonalarni rivojlantirish	0,612	0,841	0,657	Tasdiqlanmagan
H3	Faollashtirish → Issiqxonalarni rivojlantirish	0,358	0,976	0,030	Tasdiqlangan
H4	Raqobatni ta'siri → Issiqxonalarni rivojlantirish	0,741	1.223	0.000	Tasdiqlangan

Ushbu ijobiy munosabatga qaramay, mazkur koeffisientlar bilan bog'liq *P*-qiymatlari ahamiyatlilik darajasi ijobiy ko'rsatkichga ($p > 0.05$ dan yuqori) ega. 15–16 jadvallarda keltirilgan gipotezalarni tekshirish natijalari mustaqil o'zgaruvchilar va O'zbekistonda issiqxonani rivojlantirish bo'lgan bog'liq o'zgaruvchi o'rtasidagi qimmatli munosabatlarni ochib berdi.

1 (H1) va 2 (H2) gipotezalarda iqtisodiy barqarorlik va qo'llab-quvvatlovchi infratuzilma xizmatlarining issiqxona rivojlanishiga ta'siri o'rganildi, ammo statistik tahlillar bu farzlarni tasdiqlamaydi. H1 va H2 uchun beta koeffisientlari (β) ijobiy bo'lib, mustaqil o'zgaruvchilar (Iqtisodiy barqarorlik va

qo‘llab-quvvatlovchi infratuzilma xizmatlari) hamda qaram o‘zgaruvchi (Issiqxonani rivojlantirish) o‘rtasida ijobiy bog‘lanish mavjudligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, olingan natijalar mazkur yo‘nalishda qo‘shimcha tadqiqotlar o‘tkazish zarurligini ko‘rsatadi. Bu esa kelgusida samaradorlikni oshirish uchun yangi ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi.



* ishonchlilik darajasi β 95%; ** ishonchlilik darajasi β 99%.

2-rasm. Issiqxona xo‘jaligi rivojlanishining omillarga bog‘liqlig bo‘yicha tavsiya etilgan konseptual modelning sinovdan keyingi natijalari

Strukturali tenglamalarni modellashtirish usuli orqali olingan empirik ma'lumotlar shundan dalolat beradiki, ular yordam beruvchi omillar va raqobat ta'siri issiqxonalar rivojiga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko‘rsatadi, iqtisodiy samaradorlik va infratuzilma xizmatlari esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta'sir ko‘rsatmagan, ammo ular issiqxona sanoatining umumiy o‘sishi va faoliyatiga bilvosita hissa qo‘shgan.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundaki, u issiqxonalar faoliyatini samarali rivojlantirishga ta'sir etadigan asosiy omillarni aniqlaydi. Shuningdek, manfaatdor tomonlarga amaliy jihatdan asoslangan quyidagi tavsiyalarni taklif etadi: qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratish; raqobatni samarali boshqarish; infratuzilma sub'ektlarini rivojlantirish; xalqaro hamkorlik va investisiyalarni rag‘batlantirish; ilmiy-tadqiqot va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash; bozor aloqalarini mustahkamlash. Bu tadqiqot ishi O‘zbekistonda issiqxonalarini samarali rivojlantirishga oid tushunchalarni yanada boyitadi va sohani strategik istiqbolli rejalashtirish hamda shaffof ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish uchun muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.


“Issiqxona xo‘jaliklarini boshqarish va raqamlashtirishning samarali iqtisodiy modeli”¹¹ nomli maqolada issiqxona xo‘jaliklarida raqamli ta'minot zanjirini muvofiqlashtirish platformalarida ishtirok etish, texnologiyani qabul qilish va boshqa omillarni nazorat qilishdan keyin an'anaviy amaliyotlarga nisbatan rentabellikni 36%ga o‘sishi, xarajatlarni 19%ga kamaytirish, hosildorlikni 29%ga

¹¹ Effective Economic Model for Greenhouse Facilities Management and Digitalization | Journal of Human, Earth, and Future

va optimallashtirilgan texnik samaradorlik ko'rsatkichlarini 22%ga oshishi ekonometrik modellar asosida yoritib berilgan.

Ushbu tadqiqot ishining gipotezasi 15ta omilni qamrab oladi, ya'ni: H1: mehnat sarflari hosildorlik bilan ijobiy bog'liq; H2: texnologiya darajasi ekinlar hosildorligi bilan ijobiy bog'liq; H3: raqamli ta'minot zanjiri platformasi integrasiyasi ekinlar hosildorligi bilan ijobiy bog'liq; H4: ekinlar hosildorligi ishlab chiqarish xarajatlari bilan ijobiy bog'liq; H5: energiya sarfi ishlab chiqarish xarajatlari bilan ijobiy bog'liq; H6: texnologiya darajasi ishlab chiqarish xarajatlari bilan ijobiy bog'liq; H7: raqamli ta'minot zanjiri platformasi integrasiyasi ishlab chiqarish xarajatlari bilan salbiy bog'liq; H8: ishlab chiqarish narxlari foyda bilan ijobiy bog'liq; H9: ekinlar hosildorligi foyda bilan ijobiy bog'liq; H 10: ishlab chiqarish xarajatlari foyda bilan salbiy bog'liq; H11: raqamli ta'minot zanjiri platformasi integrasiyasi foyda bilan ijobiy bog'liq; H12: raqamli ta'minot zanjiri platformasi integrasiyasi ekinlar hosildorligiga to'g'ridan-to'g'ri ijobiy ta'sir ko'rsatish orqali foyda bilan bilvosita ijobiy aloqaga ega; H13: raqamli ta'minot zanjiri platformasi integrasiyasi ishlab chiqarish xarajatlarga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatish orqali foyda bilan bilvosita ijobiy aloqaga ega; H14: yuqori texnologiya darajasi DEA samaradorligining yuqori balli bilan bog'liq; H15: Raqamli ta'minot zanjiri platformasi integrasiyasi DEA samaradorligining yuqori ko'rsatkichlari bilan bog'liq.

Konseptual asos tadqiqot savoli orqali o'rganilgan asosiy o'zgaruvchilar o'rtasidagi tadqiqotning gipotezaviy aloqalarini vizual ravishda xaritada ko'rsatdi (3-rasm).



3 - rasm. Konseptual tadqiqot modelini xaritalash raqamli ta'minot zanjiri integrasiyasi, texnologiyani qabul qilish, ishlab chiqarish natijalari, iqtisodiy samaradorlik va rentabellik o'rtasidagi munosabatlarni shartli ko'rinishi

Raqamli tizim iqtisodiyotni boshqarish va raqamli muvofiqlashtirish bir vaqtning o'zida sohalarni kengaytirish hamda davlatni iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilangan sharoitda issiqxona xo'jaliklarining faoliyat samaradorligi va muddatining pirovard natijalariga ta'sir qilishini baholash sxemasini taqdim etadi. U amaliyotda ekonometrik tarkibiy yo'nalishlarga rahbarlik qiladi, operativ qarorlarning ijro etish unsurlarini yakuniy miqdor ko'rsatkichlari bilan bog'laydi.

Issiqxona xo'jaliklarining turli darajadagi saqlash va foydalanish xarajatlarini, shuningdek ekinlarning hosildorlik natijalari o'rtasidagi gipotezaviy bog'liqlikni statistik va iqtisodiy matematik tarzda aniqlash uchun ushbu ekonometrik ishlab chiqarish funksiyasidan foydalanildi.

Tadqiqot izlanishlari jarayonida mamlakatimizning qishloq xo'jaligi sohasining yirik ishlab chiqarishiga ega bo'lgan beshta viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan 58 ta issiqxona xo'jaliklarining profil atributlari o'rganildi (15-jadval). Toshkent, Andijon va Namangan viloyatlarida issiqxona ob'ektlarining uchdan ikki qismidan ko'prog'i 500 dan 1000+ kvadrat metrgacha bo'lgan o'rta-yirik ishlab chiqarishdan iborat bo'lib, asosan pomidor va bodring maxsulotlari etishtiriladi. Hududiy joylashuvi, issiqxonalarining o'lchamlari, issiqxona xo'jaliklari rahbarlarining takliflari va ular qo'llayotgan texnologiyalar bo'yicha ma'lumotlar operasion o'zgaruvchanlikni aniqlashga yordam beradi.

15-jadval

O'zbekistonning beshta dominant qishloq xo'jaligi viloyatidagi namunali issiqxonalarining profil atributlari (N= 58)

O'zgaruvchan	Hududlar	Soni (Chastota)	Foiz
Joylashuv	Toshkent viloyati	12	20,7%
	Samarqand viloyati	10	17,2%
	Andijon viloyati	12	20,7%
	Namangan viloyati	12	20,7%
	Farg'ona viloyati	12	20,7%
Ob'ekt hajmi	<500 kv.m	16	27,6%
	500-1000 kv.m	15	25,9%
	>1000 kv.m	27	46,6%
Asosiy ekinlar	Pomidor	28	48,3%
	Bodring	15	25,9%
	Ko'katlar	8	13,8%
	Aralashtirilgan sabzavotlar	7	12,1%
Texnologiya darajasi	Asosiy infratuzilma	29	50,0%
	Qisman yangilangan	12	20,7%
	Murakkab tizimlar	17	29,3%
Bozor kanallari	To'g'ridan-to'g'ri do'konlar/restoranlarga	22	37,9%
	Ulgurji bozorlar	15	25,9%
	Eksport hamkorlari	11	19,0%
	Qishloq xo'jaligi platformasi bog'langan	10	17,2%

Ekonometrik tahlillarni kengaytirib, har bir ob'ekt kesimida hisoblangan DEA modeli - chiziqli dasturlash texnikasi asosida guruh chegarasiga nisbatan vaznli chiqishlarni vaznli kirishlarga nisbatini solishtiradi.

Xususan, ekinlar hosildorligi to'rtta an'anaviy, ya'ni mehnat, kapital, moddiy resurslar va texnologiya darajasining funksiyasi sifatida modellashtirilgan va raqamli ta'minot zanjiri platformalariga integratsiyani ifodalovchi beshta statistik o'zgaruvchilarni o'z ichiga oladi.

Ushbu kengaytirilgan Cobb-Duglas tarkibiy tahlili ishlab chiqarish omillaridan foydalanish va rivojlanayotgan issiqxona xo'jaliklarining (fermer) maxsulot qabul qilish tarmoqlariga kirish yo'nalishlari asosida ekinlarning har bir kvadrat metrdan olinadigan hosildorligini bashorat qiladi.

Bunda texnik samaradorlik bo'yicha 1 ball olgan xo'jaliklar eng yaxshi amaliyot benchmark ko'rsatkichlarini ko'rsatadi, 1 balldan sezilarli darajada past bo'lgan xo'jaliklar esa nisbatan samarasiz deb belgilanadi, bu esa infratuzilma, texnologiya yoki boshqaruvni o'zgartirish sohalarini taklif qiladi (16-jadval).

16-jadval

Ishlab chiqarish funksiyasi modeli uchun gipotezalarni tekshirish natijalari

Gipoteza	Mustaqil o'zgaruvchi	Bog'liq o'zgaruvchi	Beta koeffisienti	p - qiymati	Natija
H1	Mehnat	Ekin hosildorligi	0,18	0,033	Qo'llab-quvvatlanadi **
H2	Kapital		0,21	0,002	Qo'llab-quvvatlanadi ***
	Texnologiya darajasi		0,36	0,000	Qo'llab-quvvatlanadi ***
H3	Raqamli platforma integratsiyasi		0,29	0,000	Qo'llab-quvvatlanadi ***
Xarajat funksiyasi modeli uchun gipotezalarni tekshirish natijalari (*p <0,05, **p <0,01, ***p <0,001)					
H4	Ekin hosildorligi	Ishlab chiqarish xarajatlari	0,62	0,000	Qo'llab-quvvatlanadi ***
H5	Energiyadan foydalanish		0,19	0,001	Qo'llab-quvvatlanadi ***
H6	Texnologiya darajasi		0,29	0,000	Qo'llab-quvvatlanadi ***
H7	Raqamli platforma integratsiyasi		-0,22	0,005	Qo'llab-quvvatlanadi **

Izox: ushbu ko'rsatkichlar ijobiydir ya'ni: *p <0,05, **p <0,01, *** p <0,001.

Raqamli ta'minot zanjiri platformalari va ma'lumot tarqatish kanallariga integrasiya sezilarli salbiy koefficientda (99% ishonch darajasida -0,22) xarajatlarni kamaytirish evaziga namoyon bo'ladi.

17-jadval

Foyda funksiyasi modeli uchun gipotezalarni tekshirish natijalari

Gipoteza	Munosabatl ar sinovdan o'tkazildi	Mustaqil o'zgaruvchi	Bog'liq o'zgaruvchi	β Beta koefficienti	p - qiymati	Natija
H8	Ijobiy	ishlab chiqarish narxlari	Foyda	0,85	0.000	Qo'llab-quvvatlanadi ***
H9	Ijobiy	Ekinlar hosildorligi	Foyda	0,73	0.000	Qo'llab-quvvatlanadi ***
H10	Салбий	Ishlab chiqarish xarajatlari	Foyda	-0,44	0.000	Qo'llab-quvvatlanadi ***
H11	Ijobiy	Raqamli platforma integrasiyasi	Foyda	0,36	0,003	Qo'llab-quvvatlanadi **
H12	Hosildorlik orqali bilvosita ijobiy	Raqamli platforma integrasiyasi	Foyda	0,21	0,018	Qo'llab-quvvatlanadi *
H13	Xarajatlar orqali bilvosita salbiy	Raqamli platforma integrasiyasi	Foyda	-0,15	0,047	Qo'llab-quvvatlanadi *
DEA gipotezalarini tekshirish natijalari						
H14	Ijobiy	Texnologiya darajasi	DEA samaradorligi reytingi	0,28	0,001	Qo'llab-quvvatlanadi ***
H15	Ijobiy	Raqamli platforma integrasiyasi	DEA samaradorligi reytingi	0,22	0,009	Qo'llab-quvvatlanadi **

Izox: ushbu ko'rsatkichlar ijobiydir ya'ni: *p <0,05, **p <0,01, *** p <0,001.

Moliyaviy o'lchovlarga yo'naltirilgan ekonometrik yondashuvlarni to'ldirgan holda, (DEA) modeli qo'shimcha texnik samaradorlikni taqqoslash istiqbolini taqdim etdi. Bu turli xil issiqxona ob'ektlari tomonidan berilgan mehnat, moddiy resurslar, energiya va hokazolarni qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni maksimum miqdorda oshirishga erishilgan nisbiy maqbullashtirish darajasini baholadi.

Tadqiqot jarayonida Toshkent, Samarqand, Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarining 58 ta issiqxona xo'jaliklarining faoliyatida raqamli platforma integrasiyasining rentabellik, xarajatlar, foyda va samaradorlik bilan bog'liq asosiy

koeffisientlari statistik jihatdan ahamiyatli va barqaror ko'rsatkichga egaligi tahlil qilindi (18-jadval).

18-jadval

Sezuvchanlik-mintaqaviy kichik namunalar

Ko'rsatkichlar	Toshkent	Samarqand	Andijon	Namangan	Farg'ona
Hosildorlikka ta'siri	0,27***	0,31***	0,25***	0,29***	0,33***
Xarajatlarga ta'siri	-0,19*	-0,25**	-0,18+	-0,21*	-0,26**
Foydaga ta'siri	0,34**	0,39***	0,30**	0,33**	0,41***
Samaradorlikka ta'siri	0,20**	0,25***	0,18*	0,23**	0,27***

+p<0,1, *p<0,05, **p<0,01, ***p<0,001.

Mazkur issiqxona xo'jaliklari faoliyatida yuqori texnologiyalardan foydalanish natijasida rentabellik darajasi 0,37 ga, foydaning o'sishi 0,43 ga va samaradorlik 0,31 foizga oshishi va shuningdek, xarajatlarga pasayishi aniqlandi. An'anaviy texnologiyalarda esa asosiy operatsiyalar bo'yicha rentabellik darajasi 0,21ni tashkil qilsa, xarajatlarni pasayishi -0,14, foydani o'sishi 0,25 va samaradorlik 0,13 ga erishilishi aniqlandi (19-jadval).

19-jadval

Sezuvchanlik-texnologiyaning kichik namunalari

Ko'rsatkichlar	Past texnologiyali	Yuqori texnologili
Hosildorlikka ta'siri	0,21**	0,37***
Xarajatlarga ta'siri	-0,14*	-0,29***
Foydaga ta'siri	0,25**	0,43***
Samaradorlikka ta'siri	0,13*	0,31***

*p<0,05, **p<0,01, ***p<0,001.

Tadqiqot ishida hisoblangan iqtisodiy va integratsiyaga yo'naltirilgan ta'sirlar mazkur muqobil qo'llashlar bo'yicha samarali bo'lib chiqdi. Natijalar faqat bitta empirik spesifikasiyani tanlashning artefakti emasligiga bo'lgan ishonchni oshirdi (10-jadval).

20-jadval

Sezuvchanlik-muqobil spesifikasiyalari

O'ziga xosligi	Hosildorlikka ta'siri	Xarajatlarga ta'siri	Foydaga ta'siri
Fraksion regressiya	0,30***	-0,25***	0,39***
Logit (Tech Adoption)	1,28***	-0,82**	1,44***
Multinomial (texnik darajalar)	[0,33, - 0,51]* **	[-0,30, -0,19]* **	[0,42, - 0,61]* **

p<0,01, *p<0,001.

Yuqoridagi tahlillar raqamli platformalar integrasiyasi va qishloq xo'jaligi ma'lumotlari almashinuvidan olinadigan moliyaviy ko'rsatkichlar va samaradorlikning aniqlanishi ushbu tadqiqot namunasi doirasida ko'rib chiqilgan asosiy mintaqalar, texnologik yondoshuvlar va empirik modellashtirish yondashuvlari bo'yicha izchil davom etishini ishonchli tasdiqlaydi.

“Aylanma iqtisodiyotda iste'molchi xulq-atvorining yangi konsepsiyasi”¹² nomli maqolada qishloq xo'jaliklari mahsulotlari uchun maqsadli ekoreklama strategiyasining ta'sirini chuqur tahlil etilgani yoritilgan.

Aylanma iqtisodiyot sharoitida qayta ishlanadigan qadoq, tabiiy o'g'itlardan foydalanish, suv tejash texnologiyalari va bionazorat usullarining ta'rifini mahsulot qiyofasi orqali vizual etkazish orqali xaridor xulq-atvorini o'zgartirish mumkinligi isbotlandi.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilangan:


- H1 – Ekologiyaga oid reklama xabarlarini turlicha nomlashning (masalan, “jamoaviy ta'sir” va “avlodlar davomiyligi”) qadoqning tavsiya etilgan ekologik mosligi darajasiga ta'sirini empirik sinash;

- H2 – Qadoqning tavsiya etilgan ekologik mosligi iste'molchilarning xarid qilish istigiga ta'sirini aniqlash;

- H3 – Qadoqning tavsiya etilgan ekologik mosligi iste'molchilarning mahsulot uchun qo'shimcha to'lovga tayyorlik (o'rtacha narxda to'lashga tayyorlik) darajasiga ta'sirini baholash;

- H4 – Iste'molchilarning to'lovga tayyorligi ularning xarid istagiga qanday ta'sir qilishini o'rganish; H5 – Reklama xabarlarini taqdimot uslubi (masalan, “jamoaviy” mavzu) idrok etilgan ekologik moslik va to'lovga tayyorlik o'rtasidagi bog'liqlikka o'zgartiruvchi (moderator) omil sifatida ta'sir qilish-qilmasligini tekshirish.

Shuningdek, tadqiqot davomida ushbu omillar o'rtasidagi munosabatlarning yagona konseptual modelini ishlab chiqish va uni amaliy tajriba yordamida tasdiqlash ham vazifa sifatida qo'yilgan.



4-rasm. Ekologiyaga oid xabarni shakllantirish, qabul qilingan ekologik hamkorlik, qo'shimcha to'lovga tayyorlik va xarid qobiliyati kabi gipotezalarning bog'liqligi bo'yicha konseptual modeli

¹² A New Concept of Consumer Behavior in the Circular Economy | Emerging Science Journal

Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundan iboratki, unda kommunikasiya, xulq-atvor iqtisodiyoti va atrof-muhit psixologiyasi nazariyalari uyg'unlashtirilib, aylanma iqtisodiyotdagi iste'molchilar xulq-atvorini o'rganish uchun kompleks yondashuv ishlab chiqildi.

H1-Ekologiyaga oid reklama xabarni taqdimot uslubi iste'molchilarning qadoq ekologik mosligini tavsiya etishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. ANOVA natijalariga ko'ra, turli xabar guruhlarini o'rtasidagi farq statistik jihatdan ahamiyatli ($F(2, 387)=28,34; p<0,001$) bo'lib, xabar berishda "jamoaviy ta'sir" va "avlodlar manfaatlariga"ga urg'u berilgan guruhlar neytral nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori ekologik moslik baholarini ko'rsatdi (masalan, jamoa ta'siri $M=5,81$, nazorati $M=4,22$). Demak, maxsus ekologik talab va sifat asosida qadoqlashning ishonchlilik darajasi to'g'risida iste'molchilarda paydo bo'ladigan tasavvurlarni ijobiy tomonga o'zgartirishi mumkin. H2-Qadoqning tavsiya etilgan ekologik mosligi iste'molchilar xarid istagiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. H3-Tavsiya etilgan ekologik moslik iste'molchilarning mahsulot uchun qo'shimcha to'lovga tayyorligiga ijobiy ta'sir etadi. H4-Mahsulot uchun to'lovga tayyorlik iste'molchi xarid qilish istagini ijobiy ravishda belgilaydi.

Ushbu H2–H4 gipotezalari doirasidagi o'zgaruvchilar bog'lanishlari korrelyasion va regression tahlillar yordamida tasdiqlandi. Tavsiya etilgan ekologik moslik balining xarid istagi bilan korrelyasiyasi $R=0,62$ ($p<0,01$) ni, (WTP) to'lashga tayyorlik darajasi ko'rsatkichi bilan korrelyasiyasi $R=0,58$ ($p<0,01$) ni tashkil etdi. Regression tahlil natijasida esa ekologik moslik indeksi oshishi xarid istagini sezilarli darajada oshirishi ($\beta=0,512; p<0,001$) hamda to'lashga tayyorlik darajasi ko'rsatkichi chegarasini oshirishi ($\beta=0,472; p<0,001$) aniqlandi; shuningdek, to'lashga tayyorlik darajasining ko'rsatkichini yuqorilashi xarid qilish ehtimolini oshirishga sezilarli hissa qo'shishi kuzatildi ($\beta=0,612; p<0,001$).

Ushbu modelda tavsiya etilgan ekologik moslik xarid istagi dispersiyasining ~39%ini izohlab berdi ($R^2=0,386$), to'lashga tayyorlik darajasi ko'rsatkichi dispersiyasining ~34%ini izohladi ($R^2=0,337$) hamda bir vaqtning o'zida to'lashga tayyorlik darajasining o'zi xarid niyati dispersiyasining ~32%ini izohladi.

Aylanma iqtisodiyot shartlarida qishloq xo'jaligi (issiqxona) mahsulotlarining bozorda raqobatbardoshligini oshirish uchun mahsulotning ekologik rolini to'g'ri shakllantirish va targ'ib etish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ekologik yo'naltirilgan qadoq va strategik reklama iste'molchida ishonch, qo'shimcha haq to'lashga tayyorlik hamda barqaror mahsulotni tanlash kabi xulq-atvorni shakllantirishi mumkin.


“Inson kapitali boshqaruvi va ESG faoliyati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik: S&P 500 xo'jaliklari misolidagi dalillar”¹³ nomli maqolada tematik tahlil, korrelyasion tahlil va regressiya modellaridan foydalanildi. Ilmiy asos sifatida resurslarga asoslangan nazariya (RBV), tabiiy resurslarga asoslangan nazariya (NRBV) va manfaatdor tomonlar nazariyasidan foydalanildi. Ushbu nazariyalar

¹³ [Interrelation between human capital management and ESG engagement: evidence from S&P 500 firms | Humanities and Social Sciences Communications](#)

yordamida issiqxona xo‘jaliklari misolida inson kapitali boshqaruvi elementlari (mehnat unumdorligi, o‘quv investisiyalari, gender va vazifalar xilmaxilligi, maoshlar tengligi, ijtimoiy imtiyozlar) hamda ESG (ekologik, ijtimoiy va boshqaruv) ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilindi. Shuningdek, inson kapitali boshqaruvi strategiyalari bilan korporativ barqarorlik o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilinadi hamda xo‘jalik boshlig‘i (CEO) lavozimida xizmat faoliyati muddatining ushbu munosabatga qanday ta'sir ko‘rsatishi ham o‘rganiladi. Ushbu tahlil 2011–2023 yillar davrini qamrab oldi va S&P 500 indeksidan 413 ta xo‘jalik yurituvchi sub'ektni o‘z ichiga olgan panel ma'lumotlar asosida inson kapitali boshqaruvining quyidagi turli amaliyotlarining ESG (ekologik, ijtimoiy va boshqaruv) ko‘rsatkichlariga ta'siri empirik jihatdan tahlil qilindi, jumladan, xodimlar samaradorligi, texnologiya asosidagi o‘quv investisiyalari, ishchi kuchi xilma-xilligi (diversity), mehnat faoliyatida tenglik, xodimlarga beriluvchi imtiyozlar kabi ilmiy takliflardan iborat.

Panel regressiya tahlili asosida inson kapitali boshqaruvining asosiy amaliy elementlari korxonalarining umumiy ekologik, ijtimoiy va xo‘jalik boshqaruvi (ESG) ko‘rsatkichlariga ta'siri o‘rganildi. Tahlil 1827 ta “xo‘jalik-yil” kuzatuvlarini qamrab olgan bo‘lib, bu 413 ta turli xo‘jalik yurituvchi sub'ektlarning bir necha yillik faoliyatini o‘z ichiga oladi.


Xodimlar unumdorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar – ya'ni bir xodimga to‘g‘ri keladigan soliq va amortizasiyadan oldingi daromad (EBITDA/Employee) ($\beta = 0.23$, $p = 0.011$) va bir xodimga to‘g‘ri keladigan tushum (Revenue/Employee) ($\beta = 0.028$, $p = 0.012$) – ESG ko‘rsatkichlari bilan musbat bog‘liqlikka ega ekani aniqlandi. Bu 1-gipotezani tasdiqlaydi, ya'ni xodimlar unumdorligi yuqori bo‘lgan xo‘jaliklar ESG ko‘rsatkichlari bo‘yicha ham yuqori natija qayd etishadi va ijtimoiy mas'uliyatga ko‘proq ahamiyat berishadi.



5-rasm. Inson kapitali boshqaruvi samaradorligi, xo‘jalik boshlig‘i (CEO)ning lavozimdagi tajribasi va korporativ ESG ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni tasvirlovchi taklif etilgan konseptual modeli

Inson kapitali boshqaruvi strategiyalar va korporativ barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qiladi hamda xo'jalik rahbari (CEO) lavozimida ishlagan faoliyatini ushbu munosabatga qanday ta'sir ko'rsatishini ham o'rganadi. Xo'jalik ma'lumotlari asosida inson kapitali boshqaruvining turli amaliyotlarini ESG (ekologik, ijtimoiy va boshqaruv) ko'rsatkichlariga ta'siri empirik jihatdan tahlil qilindi va xodimlar faoliyatining samaradorligi, texnologiya asosidagi o'quv investisiyalar, ishchi kuchining xilma-xilligi (diversity), mehnat teng taqsimlanganligi, xodimlarga beriladigan imtiyozlar, ichki resurslarning nomutanosib taqsimlanishi ESGga zarar etkazishi mumkinligi kabi ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqildi.

Shuningdek, 2-gipotezaga muvofiq, texnologiyalarga asoslangan o'quv investisiyalari, har bir xodimga to'g'ri keladigan ilmiy-tadqiqot (R&D) sarflari orqali baholanganda ($\beta = 0.043$, $p = 0.002$), ESG ballari bilan kuchli bog'liqlikka ega. Bu – har bir xodimga qo'shimcha 1000 AQSh dollari sarf qilinganida, ESG reytingida 0,043 marta o'sish kuzatiladi - bu oz bo'lsa-da, statistik jihatdan ahamiyatli natija hisoblanadi.



6-rasm. Xo'jalik boshqaruvi muddatining inson kapitali boshqaruvi samaradorligi va ESG ko'rsatkichlari o'rtasidagi munosabatga moderatorlik (ta'sir etuvchi omil) sifatidagi ta'siri

6-rasm – inson kapitali boshqaruvi samaradorligi va ESG ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlikka CEO xizmat muddatining moderatorlik ta'sirini vizual shaklda aks ettiradi. Grafikda yuqori va past xizmat muddatiga ega xo'jalik boshqaruvi uchun ushbu bog'liqlikning tendensiyalari solishtirilgan. Uzoq boshqaruv lavozim xizmat muddatiga ega issiqxona xo'jaliklarida faoliyat ko'rsatkichining ta'siri kuchli bo'lishini, bu esa xo'jalik boshqaruvida uzoq ishlagan kompaniyalarda inson resurslarini boshqarish samaradorligi ESG natijalarini ijobiy ko'rsatkichga ega bo'lishini bildiradi. Bu esa ularning kompaniyada inson salohiyatini chuqur tushunish, manfaatdor tomonlar o'rtasida

ishonch va uzoq muddatli barqaror faoliyat ko'rsatishga qobiliyat mavjudligi bilan izohlanadi.

Xodimlarning turli ko'rsatkichlari ham ESG bilan bog'liq ekani tahlil qilindi. Xususan, rahbariyatda bo'lmagan (non-executive) xodimlar ulushi ($\beta = 1.23$, $p = 0,001$) ESG bilan kuchli va ijobiy bog'liqlikda bo'lib, kompaniyada teng ishtirok asosidagi tuzilma mavjudligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga - ayollar ulushi ham rahbariyat darajasida ($\beta = 0.13$, $p = 0.081$) va umumiy xodimlar tarkibida ($\beta = 0.03$, $p = 0.114$) yuqori bo'lgan kompaniyalar barqarorlikni ta'minlashda etakchi hisoblanadi. Garchi bu munosabatlar statistik jihatdan ahamiyatli bo'lmas-da, ular ijobiy yo'nalishni ko'rsatadi. 4-gipotezani qo'llab-quvvatlovchi holda, CEO va o'rtacha xodim o'rtasidagi maosh nisbatining yuqoriligi ESG natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi ($\beta = -0,91$, $p = 0,045$).

Ichki resurslarning nomutanosib taqsimlanishi ESGga zarar etkazishi mumkinligi qayd etildi. 5-gipotezaga muvofiq, xodimlar uchun ajratilgan imtiyozlar (Employee Benefits) ESG ko'rsatkichlariga musbat ta'sir ko'rsatadi ($\beta = 0.37$, $p = 0.025$). Bu ishchi bilan ijtimoiy shartnomaning mustahkamligini ko'rsatadi.

Tahlillar natijalari shuni ko'rsatadiki, issiqxona xo'jaligida inson kapitali boshqaruvi elementlari (mehnat unumdorligi, o'quv investisiyalari, xilmaxillik, tenglik va ijtimoiy imtiyozlar) ESG ko'rsatkichlari bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. ESGni yaxshilash uchun inson kapitaliga sarmoya qilish zarur – bu inson resurslarini tizimli barqaror rivojlantirishga olib keladi.

Rahbarning (masalan, fermerning) mehnat staji va etakchilik qobiliyati (salohiyati) inson kapitali siyosatini ESG maqsadlari bilan bog'lashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Ushbu model issiqxona xo'jaliklarining raqobatbardoshligini va barqarorligini ta'minlashda metodik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

“Tabiiy resurslarga boy davlatlarda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni paradoksi: Braziliya, Rossiya va O'zbekiston misolida”¹⁴ nomli maqolada tabiiy resurslarga boy mamlakatlar “yashil iqtisodiyotga o'tish” jarayonida qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Empirik tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, turlicha institusional tuzilmalarga qaramasdan, bu jarayonga o'tishni iqtisodiy jihatdan amalga oshirish birmuncha murakkab bo'lishi mumkin.

Mazkur tadqiqot vaqtida 2025–2050 yillar davomida Braziliya (rivojlanayotgan ilg'or iqtisodiyot), Rossiya (o'tish davridagi iqtisodiyot) va O'zbekiston (rivojlanayotgan iqtisodiyot) misolida taqqoslama tahlil amalga oshirildi hamda institusional qarshilik va iqtisodiy cheklovlar “yashil iqtisodiyotga o'tish” urinishlariga qanday ta'sir qilishnishi bo'yicha tadqiqot olib borildi.

Tadqiqotda institusional qarshilikni hisobga oluvchi (0.8 koeffisientli) hisoblash imkoniga ega umumiy iqtisodiy muvozanat (CGE – Computable General Equilibrium) modeli asosida Institusional-Resurs Yo'naltirilgan Yashil O'tish

¹⁴ [The Green Transition Paradox Across Natural Resource-Rich Economies: Evidence from Brazil, Russia, and Uzbekistan | Emerging Science Journal](#)

(IRGT – Institutional-Resource Green Transition) konseptual loyixa asosida ishlab chiqilib, sinovdan o‘tkazildi.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan institutsional sifat indeksi mamlakatlar o‘rtasidagi farqlarni ilmiy asosda baholash imkonini berdi. Bu indeks asosida qishloq xo‘jaligi va sanoat sohalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish uchun strategik yo‘l xaritalari ishlab chiqish tavsiya etilmoqda. Bundan tashqari, energetika sektorida resurs tejamkor texnologiyalarning samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy xulosalar keltirilgan. Tadqiqot natijalari kelgusida qishloq xo‘jaligida innovatsion yechimlarni qo‘llash, atrof-muhit muhofazasi va barqaror rivojlanish strategiyalarini shakllantirishda muhim kasb etishini inobatga olish zarur.

Olingan natijalar “yashil o‘tish” jarayonining iqtisodiy jihatdan amalga oshmasligini ko‘rsatdi: Braziliyada katta investisiyalarga qaramasdan, texnologiyalarni joriy etish faqat 25% bazaviy ko‘rsatkichdan yuqori bo‘ldi. Rossiyada esa joriy etish darajasi 45%ga pasaygan, O‘zbekistonda esa bu ko‘rsatkich minus 75%ni tashkil etdi, ya'ni turli to‘sqinliklar juda kuchli bo‘lishi kuzatildi.

Tahlillar institutsional sifat yuqori bo‘lsa-da, iqtisodiy to‘siqlarni bartaraf etolmasligini ko‘rsatdi, joriy etish xarajatlari belgilangan muddatga nisbatan 80%ga oshgan. Xususan, O‘zbekistonda “yashil o‘tish” xarajatlari juda yuqori bo‘lib, institutsional qarshilik 78%ni tashkil etdi, bu esa shundan dalolat beradiki, “yashil o‘tish” talablari rivojlanayotgan mamlakatlar uchun noqulay tadbir bo‘lib qolmoqda.

Tashkiliy sifatni baholashda taqqoslanuvchanlik va muvofiqlikni ta'minlash maqsadida Jahon bankining ****Butunjahon boshqaruv ko‘rsatkichlari (WGI)**** dan foydalanildi. Ushbu ko‘rsatkichlar institutsional sifatni baholashning asosiy oltita yo‘nalishi, jumladan, fikr bildirish va javobgarlik; siyosiy barqarorlik; hukumat samaradorligi; me'yoriy sifat; qonun ustuvorligi hamda korrupsiyani nazorat qilish bo‘yicha standartlashtirilgan mezonlarni taqdim etadi.

Ushbu ko‘rsatkichlarning asosiy komponentlarini tahlil qilish orqali uchta mamlakatning institutsional tuzilmalarini ko‘p qirrali xususiyatlarini aks ettiruvchi birlashtirilgan institutsional sifat indeksi ishlab chiqildi. Ushbu uchta mamlakat uchun Ijtimoiy Hisob-Kitob Matrisalari (SAM) 2023 yil bazaviy yil sifatida qabul qilingan holda tuzilgan va ular mamlakatlar iqtisodiyotining 12 ta asosiy tarmog‘ini qamrab oladi.

Bu tarmoqlar qishloq xo‘jaligi va ishlab chiqarish kabi an'anaviy sohalardan boshlab yashil o‘tish jarayonlarini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan energetika sohalarini ham o‘z ichiga oladi. Ushbu modeldagi tarmoqlar klassifikatsiyasi 21-jadvalda bayon etilgan bo‘lib, u 12 asosiy tarmoq va ularning tegishli resurs intensivligi darajalarini ko‘rsatadi.

Resurs intensivligi darajalari tarmoq bo‘yicha ****kirish resurslari (energiya, moddiy va tabiiy resurslar)**** ning umumiy chiqish qiymatiga nisbati asosida hisoblab chiqildi. Hisoblash uchun quyidagi me'yorlar qo‘llanildi: 0,7 - ∞ juda yuqori intensivlik; 0,5–0,7 – yuqori; 0,3–0,5 - o‘rtacha; <0,3 - past intensivlikdan iborat.

Tarmoqlar klassifikatsiyasi va tavsifi

Tarmoq kodi	Tavsif	Asosiy faoliyat turlari	Resurs intensivligi
AGR	Qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi	Dehqonchilik, chorvachilik, o'rmonchilik	O'rtacha
EIM	Energiya intensiv ishlab chiqarish	Po'lat, sement, kimyo	Yuqori
MAN	Boshqa ishlab chiqarish tarmoqlari	Iste'mol tovarlari, uskunalari	O'rtacha
UTL	Kommunal xizmatlar	Suv ta'minoti, chiqindi boshqaruvi	O'rtacha
SER	Xizmatlar	Savdo, moliyaviy xizmatlar	Past
ONG	Neft va gaz	Qazib olish, qayta ishlash	Juda yuqori
COL	Ko'mir	Qazib olish, qayta ishlash	Juda yuqori
REN	Yangi barqaror energiya	Quyosh, shamol, gidroenergetika	Past
OEN	Boshqa turdagi energiya	Yadro, biomassa	O'rtacha

Tadqiqot natijalariga ko'ra, ishlab chiqarish elastikliklari tarmoqlar bo'yicha farq qiladi va bu resurslarga bog'liq sohalarning qattiq tuzilmaviy xususiyatini aks ettiradi. Ushbu elastiklik qiymatlari 0,12 dan 0,2 gacha bo'lib, ayniqsa qattiq tartibga solingan tarmoqlarda kuzatiladi.

Iste'mol elastikliklari 0,5 dan 1,2 gacha deb baholangan bo'lib, bu turli iqtisodiyotlarda narx o'zgarishiga nisbatan iste'molchilarning turlicha munosabatini ifoda etadi.

Savdo elastikliklari esa yanada keng doirada - 0,8 dan 2,5 gacha o'zgarib, xalqaro savdo munosabatlarning xilma-xilligini va bozorlarga moslashuvchanlik darajasini namoyon etadi.

Braziliya, Rossiya va O'zbekiston mamlakatlari uchun tahlilda qo'llanilgan asosiy model parametrlari va elastikliklar bayon qilingan. Ushbu parametrlar uchta davlat o'rtasida sezilarli farqlarni jumladan, institusional javob elastikligi (0,1 dan 0,35 gacha) va resurslar samaradorligi elastikliklari (0,4 dan 1,2 gacha) namoyon etadi. Bu esa har bir mamlakatning institusional tuzilmasi va tabiiy resurslarga yuqori darajadagi bog'liqligini aks ettiradi. Ayniqsa, Rossiya (0,15–0,25) va O'zbekiston (0,1–0,2) uchun institusional siyosiy javob elastikligining past darajada bo'lishi, ushbu mamlakatlar “yashil o'tish” (green transition) siyosatlarini amalga oshirishda tuzilmaviy muammolarga duch kelayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, energiya-moddiy resurslar almashinuvi parametrlari Braziliyada 0,12–0,2, Rossiyada 0,08–0,16, O'zbekistonda esa 0,08–0,12 tashkil etadi. Barcha parametrlar 2023 yildagi Ijtimoiy Hisob-Kitob Matrisalari (SAM) asosida, tegishli

milliy statistika idoralari (Braziliyada IBGE, Rossiyada Rosstat va O‘zbekistonda UzStat) ma'lumotlari asosida hisoblangan.

22-jadval

Braziliya, Rossiya va O‘zbekiston davlatlari uchun model parametrlari va elastikliklar

Parametr kategoriyasi	Parametr	Braziliya	Rossiya	O‘zbekiston	Manba
Ishlab chiqarish	Mehnat-kapitalni almashtirish	0,8–1,2	0,7–1,1	0,6–1,0	SAMdan kalibrovka
	Energiya-moddiy resurslar almashinuvi	0,12–0,2	0,08–0,16	0,08–0,12	Tarixiy ma'lumotlar
	Resurs-mahsulot nisbati	0,4–0,6	0,6–0,8	0,5–0,7	Tarmoq statistikasi
Iste'mol	Daromadga nisbatan elastiklik	0,8–1,5	0,7–1,4	0,6–1,3	Aholi so'rovlar
	Narxga nisbatan elastiklik	0,3	0,3	0,3	Bozor ma'lumotlari
Savdo	Armington elastikligi	2,0–3,5	1,8–3,2	1,5–2,8	Savdo statistikasi
	Ekspost transformasiyasi	1,5–2,8	1,3–2,5	1,2–2,3	Ekspost ma'lumotlari
Institusional	Siyosiy javob elastikligi	0,25–0,35	0,15–0,25	0,1–0,2	WGI ko'rsatkichlari
	Resurs samaradorligi	0,8–1,2	0,6–1,0	0,4–0,8	Resurs ma'lumotlari

22-jadvalda Braziliya, Rossiya va O‘zbekiston mamlakatlari uchun tahlilda qo‘llanilgan asosiy model parametrlari va elastikliklar bayon qilingan. Ushbu parametrlar uchta davlat o‘rtasida sezilarli farqlarni jumladan, institusional javob elastikligi (0,1 dan 0,35 gacha) va resurslar samaradorligi elastikliklari (0,4 dan 1,2 gacha) namoyon etadi. Bu esa har bir mamlakatning institusional tuzilmasi va tabiiy resurslarga yuqori darajadagi bog‘liqligini aks ettiradi.

Ayniqsa, Rossiya (0,15–0,25) va O‘zbekiston (0,1–0,2) uchun institusional siyosiy javob elastikligining past darajada bo‘lishi, ushbu mamlakatlar “yashil o‘tish” (green transition) siyosatlarini amalga oshirishda tuzilmaviy muammolarga duch kelayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, energiya-moddiy resurslar almashinuvi parametrlari Braziliyada 0,12–0,2, Rossiyada 0,08–0,16, O‘zbekistonda esa 0,08–0,12 tashkil etadi. Barcha parametrlar 2023 yildagi Ijtimoiy Hisob-Kitob Matrisalari (SAM) asosida, tegishli milliy statistika idoralari (Braziliyada IBGE, Rossiyada Rosstat va O‘zbekistonda UzStat) ma'lumotlari asosida hisoblangan.

Barcha uch mamlakat uchun Ijtimoiy Hisob-Kitob Matrisalari (SAM) 2023 yilni bazaviy yil sifatida qabul qilgan holda tuzilgan bo‘lib, ular iqtisodiyotning 12 ta asosiy tarmog‘ini qamrab oladi, ular ichida qishloq xo‘jaligi ham alohida o‘rin tutadi (23-jadval). SAM modellari orqali milliy iqtisodiyotning turli tarmoqlari

o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar, resurslar taqsimoti va iqtisodiy siyosat chora-tadbirlarining ehtimoliy ta'siri aniq tahlil qilindi.

Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi tarmog'i uchun tuzilgan SAM ma'lumotlari tarmoqning yalpi qiymatdagi ulushi, ish bilan ta'minlashdagi roli va tashqi savdo bilan bog'liq aloqalarini chuqur o'rganish imkonini berdi. Bu esa kelgusida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qishloq xo'jaligini diversifikatsiya qilish va "yashil" texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan siyosatlarni shakllantirishda ishonchli ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

23-jadval

Yashil o'tish ssenariy natijalari (2025–2050)

Ko'rsatkich	Braziliya (BAU)	Braziliya (GT)	Rossiya (BAU)	Rossiya (GT)	O'zbekiston (BAU)	O'zbekiston (GT)
YaIM o'sishi (o'rtacha yillik %)	2.8%	2.1%	2.1%	1.4%	1.9%	1.2%
Chiqindilarni qisqartirish (%)	28%	-15%	42%	-12%	45%	-8%
Resurs tarmoqlari ulushi o'zgarishi (%)	-8.5	-15.0	-4.2	-9.0	-2.8	-7.0
Yangi barqaror energiya o'sishi (%)	125%	85%	65%	45%	45%	25%
Yaratilgan yashil ish o'rinlari (mln)	5.2	12.3	3.1	7.8	0.8	2.1
Institusional sifat o'zgarishi (%)	0.3%	0.6%	0.1%	0.4%	0.2%	0.3%

Izoh: **BAU** (Business-as-Usual) – Mavjud amaliyot asosida rivojlanish ssenariyasi, ya'ni hech qanday yangicha siyosatlarsiz holat. **GT** (Green Transition) – "Yashil o'tish" ssenariosi, ya'ni ekologik barqaror rivojlanish va energiya resurslarini o'zgartirishni ko'zda tutadigan siyosatlar asosidagi yo'nalish.


O'zbekiston uchun BAU ssenariyidagi rivojlanish eng murakkab deb baholandi. YaIMning o'rtacha yillik o'sishi 1,9%, chiqindilar intensivligi esa yiliga atigi 0,5%ga pasayadi. Resurs tarmoqlari ulushi faqat 2,8%ga kamayishi kutilmoqda.

Institusional sifatda yillik 0,2%dan ortiq bo'lmagan o'sish kuzatiladi. O'zbekiston "yashil o'tish" jarayonining murakkabliklari eng aniq ko'zga tashlanadi: YaIM o'sish sur'ati 1,2%gacha pasaygan, chiqindilarni kamaytirish faqat -8%, yangilanadigan energiya manbalari o'sishi esa 25%da qolgan. Bu holat rivojlanayotgan, resurslarga qaram iqtisodiyotga ega mamlakatlar "yashil" siyosatlarni amalga oshirishda qanday jiddiy to'siqlarga duch kelishini ko'rsatadi.

7-rasm uchta davlatda yashil o'tish urinishlarining iqtisodiy xarajatlari kattaligi, ammo ekologik foydasi cheklangan ekanini tasvirlaydi, masalan:

A-seksiya: YaIM o'sish traektoriyalari, unda yashil siyosatlar ta'sirida iqtisodiy o'sish sekinlashishi ko'rsatilgan. YaIM o'sishi - Braziliyada 2.8% (BAU) dan 2.1% (GT) gacha tushadi; Rossiyada 2.1% (BAU) dan 1.4% (GT) gacha; O'zbekistonda esa 1.9% (BAU) dan 1.2% (GT) gacha pasayadi.


B-seksiya: SO₂ chiqindilarni kamaytirish traektoriyalari, hatto eng samarali natijalarga erishgan Braziliya ham GT sharoitida faqat 15% chiqindilarni kamaytirishi mumkin. Rossiya 12% va O'zbekiston 8% ko'rsatkichga erishadi.




7-rasm. SO₂ chiqindilari va YaIM traektoriyalari (2025–2050)

7-rasmdan ko‘rinib turibdiki, institusional to‘siqlar va amalga oshirishdagi muammolar har uchala mamlakatda ham yashil siyosatlarni samarali joriy etish imkonini cheklaydi. Bu holat rivojlanish darajasi va boshlang‘ich institusional salohiyatdan qat‘iy nazar kuzatiladi. SO₂ chiqindilari va yalpi ichki mahsulot (YaIM) prognozi umumiy muvozanatli dinamik model (CGE) yordamida, institusional qarshilik koeffisienti (IRM_t) hamda siyosatni amalga oshirish samaradorligining yangilangan parametrlarini inobatga olgan holda shakllantirildi. O‘zbekiston Respublikasi rivojlanayotgan iqtisodiyot sifatida yashil o‘tishning amaliy imkoni yo‘qligini ko‘rsatmoqda, ya'ni texnologiyalarni joriy etish sur'ati – Braziliyaga nisbatan 75% va Rossiyaga nisbatan 30% past ko‘rsatkichga ega ekanligini bildiradi.

Institusional to‘siqlar asosan me‘yoriy-huquqiy bazaning yetarli emasligi, moliyaviy resurslar tanqisligi va innovatsiyalarni joriy etishdagi byurokratik to‘siqlar bilan bog‘liq. CGE modeli doirasida turli siyosat ssenariylari, soliq imtiyozlari va texnologiyalar transferi parametrlari kiritilib, ularning yalpi iqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta’siri baholandi. Braziliya va Rossiyada davlat qo‘llab-quvvatlash tizimi barqaror bo‘lsa-da, O‘zbekistonda investitsiya oqimlari va xalqaro hamkorlik yetarli darajada rivojlanmagani qayd etildi, shuning uchun mamlakatda yashil siyosatlarni amalga oshirishda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, innovatsion texnologiyalarni lokallashtirish hamda Institusional sifatni oshirish muhim vazifa hisoblanadi.



8-rasm. Sohalar bo'yicha o'tish traektoriyalari (2025–2050)



9-rasm. Siyosat samaradorligini taqqoslash

8 va 9-rasmlardagi diagramma Braziliya, Rossiya va O‘zbekiston davlatlaridagi yashil o‘tish (green transition) siyosati samaradorligini 10 ta asosiy yo‘nalish bo‘yicha taqqoslaydi va amalga oshirishda jiddiy to‘siqlar mavjudligini namoyon etadi.

O‘zbekiston Respublikasi rivojlanayotgan mamlakat sifatida yashil o‘tishning amaliy jihatdan imkonsizligini aks ettirmoqda. Ballar 20–35 oralig‘ida bo‘lib, texnik salohiyat (25) va siyosatlar integrasiyasi (22)da minimal yutuqlarga erishilgan, ammo jamoatchilik ishtiroki (20) va manfaatdor tomonlar ishtirokida (20) qattiq qiyinchiliklar mavjud.

Jamoatchilik ishtirokining past ko‘rsatkichlari (Braziliya – 48, Rossiya – 35, O‘zbekiston – 20) barcha uchta mamlakatda kuzatilgan muammolar faqat texnik yoki ma'muriy jihatdan emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmalarda ham mavjud ekanligini bildiradi.

Siyosat samaradorligi ko‘rsatkichlari 0 dan 100 gacha bo‘lgan shkalada baholandi. Bu ko‘rsatkichlar quyidagi usulga asoslangan kompleks metodologiya orqali aniqlandi: 40% - Jahon bankining boshqaruv indikatorlari bo‘yicha aniqlangan miqdoriy ko‘rsatkichlar, 30% - milliy ekologik agentliklar tomonidan qayd etilgan siyosat ijrosi darajasi, 30% - har bir mamlakat bo‘yicha 50 nafar siyosatshunos mutaxassis ishtirokida o‘tkazilgan ekspert baholash Delphi so‘rovlari orqali baholandi. Har bir yo‘nalish maxsus mezonlar va standartlashtirilgan baholash shkalalari asosida baholandi. Resurslarga bog‘liqlik yashil o‘tish jarayonlariga nisbatan engib bo‘lmas darajadagi institusional qarshilikni yuzaga keltiradi. Bunda O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich 78%, Rossiyada 65% va Braziliyada 58%ni tashkil etadi.

Tahlil natijalardan ko‘rinib turibdiki, tabiiy resurslarga boy mamlakatlarda “yashil o‘tish” siyosatlarini amalga oshirishda institusional to‘siqlardan ko‘ra, iqtisodiy cheklovlar va resurslarga bog‘liqlik darajasi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu holat issiqxona xo‘jaligi singari resurslardan foydalanishga nisbatan yuqori ehtiyojga ega bo‘lgan tarmoqlar uchun ham dolzarb hisoblanadi.

Issiqxona xo‘jaligi O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligining eksportga yo‘naltirilgan, valyuta tushumini ta'minlaydigan, lekin yuqori energiya va suv sarfi talab qiladigan tarmoqlaridan biridir. Agar mamlakat yashil o‘tish siyosatlarini joriy etsa (masalan, issiqxonalarini qayta tiklanadigan energiyaga o‘tkazish, SO₂ chiqindilarini cheklash, energiya tejamkor texnologiyalarni qo‘llash kabi), bu holat quyidagicha ta'sir ko‘rsatishi mumkin: investision xarajatlar keskin oshib ketadi (quyosh batareyalari, izolyasiya texnologiyalari, avtomatlashtirilgan tizimlar talab etiladi); moliyaviy imkoniyatlar cheklanganligi tufayli issiqxona xo‘jaliklari eski texnologiyalar bilan ishlashda davom etadi; etishtirilayotgan mahsulot tannarxi oshadi, bu esa ichki va tashqi bozorda raqobatbardoshlikni pasaytiradi; rivojlanish sur'ati sekinlashadi, ishlab chiqarish xarajatlari o‘sadi. Issiqxona xo‘jaligi ham tabiiy resurslarga (suv, energiya, er) bog‘liq tarmoq bo‘lgani sababli, uning faoliyatida ham “yashil siyosatlar”ni to‘liq joriy etish shunchaki ekologik masala emas - iqtisodiy barqarorlik bilan bog‘liq murakkab qarorlarni talab etadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, “yashil iqtisodiyotga o‘tish” siyosati resurslarga bog‘liq rivojlanayotgan davlatlarda, jumladan, O‘zbekistondagi issiqxona xo‘jaligi kabi yuqori energiya sarflovchi qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida amalga oshirilishi iqtisodiy jihatdan samarasiz hisoblanadi. Ushbu siyosatlarning joriy etilishi: moliyaviy yukni keskin oshiradi, bozorda raqobatbardoshlikni kamaytiradi va iqtisodiy o‘tishni sekinlashtiradi. Buning o‘rniga, mavjud resurslarga asoslangan xo‘jalik faoliyatlarini maqbullashtirish, energiya samaradorligini bosqichma-bosqich

oshirish va iqtisodiy suverenitetni saqlab qolish asosiy strategik maqsad sifatida belgilanishi lozim.

XULOSA

1. Toshkent, Samarqand va Buxoro viloyatlaridagi issiqxonona xo‘jaliklari faoliyati samaradorligi “Ekologiya, jamiyat va boshqaruv” (ESG) darajasi bo‘yicha integral baholash mezonlariga asoslangan uslubiy yondashuvlar amaliyotga joriy qilinmoqda. Natijada ushbu uslubiy tavsiyalar qishloq xo‘jaligi sohasi rahbarlarining ishbilarmonlik qobiliyatini baholashda, shuningdek atrof-muhitga etkazilgan zararni qoplash, boshqaruv samaradorligini oshirish, yuqori texnologiyali ish o‘rinlarini yaratish, investisiyalar rentabelligi va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksport darajasini oshirishga imkon beradi.

2. Issiqxonada etishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining qo‘shilgan qiymati va o‘zgaruvchi indikatorlar o‘rtasidagi qisqa va uzoq muddatli bog‘liqlik indeks darajasiga bevosita ta’sir etuvchi omillarni EVIEWS dasturi bilan tahlil qilish asosida oziq-ovqat xavfsizligi va oziq-ovqat ekinlarining samaradorligini oshirish uchun issiqxonona klasterlari faoliyatini maqbullashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar amaliyotga joriy qilish uchun qabul qilingan. Natijada ushbu ilmiy-uslubiy tavsiyalar hududlardagi muammolarni hal etishda jamoaviy qarorlar qabul qilish, texnologik integrasiya, resurslarni tejash, importga qaramlilik masalasini hal qilish, ekinlarni diversifikatsiya qilish, shaffoflik va resurslardan teng foydalanishni ta’minlashda klasterlar hamkorligini mustahkamlash va davlat-xususiy sherikligida boshlang‘ich sarmoyalarni hal qilishga imkon beradi.

3. Issiqxonona xo‘jaliklarining raqamli transformasiyalarga tayyorgarlik darajasiga ko‘ra ko‘p bosqichli tashxis qo‘yadigan raqamli tahlil metodologiyasi “Green capital” MChJ hamda “Bek cluster” MChJlariga joriy qilinib, u beshta o‘zaro bog‘liq bosqichda (tanlash, sifat, mazmun, mavzu-tarmoq, dastur-tavsiya) va ettita baholash bo‘limi, ya’ni (DIGITAL) (D – defisitlar, I – qishloq xo‘jaligidagi innovatsiyalar, G – er resurslari va iqlim; I – infratuzilma, T – asbob-uskunalar, texnologiya, A – ma’muriy jarayonlar, L – qonunchilik) o‘z ichiga oliadi. Mazkur taklif etilayotgan ko‘rsatkichlar va reyting tizimi orqali ekspert va miqdoriy baholash uslublari ishlab chiqarishda keng miqyosda qo‘llanilmoqda. Ushbu ilmiy-uslubiy tavsiyalar hududlardagi fermerlarni raqamli savodxonlik dasturlari bilan ta’minlash, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, raqamli platformalarga moslashish, ekin, harorat kabi jarayonlarni monitoringini optimallashtirishga xizmat qiladi.

4. O‘zbekistonda issiqxonalarini rivojlanishiga ta’sir etuvchi to‘rtta gipoteza - omillar, ya’ni (H1) iqtisodiy barqarorlik issiqxonani rivojlantirishda ijobiy va muhim rol o‘ynashini, (H2) qo‘llab-quvvatlovchi infratuzilma, (H3) davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, resurslarning mavjudligi, biznes faolligi va an’anaviy tajriba kabi omillar, (H4) raqobat ta’siri kabi omillar asosida konseptual modeli (bu model 0.934 koeffitsient ko‘rsatkichga ega) ishlab chiqilib, amaliyotga joriy qilish va o‘quv darsliklarida foydalanish uchun qabul qilingan. Ushbu ilmiy-uslubiy tavsiyalarni amaliyotga bosqichma-bosqich joriy qilinishi issiqxonona xo‘jaliklari faoliyati samaradorligini oshirishda, shuningdek zamonaviy biznes boshqaruvini tashkil etish,

biznes rejalar ishlab chiqish, mavjud resurslardan samarali foydalanish, aylanma iqtisodiyotni rivojlantirish, resurs tejaydigan yangi texnologiyalardan foydalanish, yangi ish o'rinlarini yaratish va iqtisodiy imkoniyatlar yaratishda keng miqyosda foydalanish va yuqori samaradorlikni ta'minlashga imkoniyat yaratadi.

5. Issiqxona xo'jaliklarida raqamli ta'minot zanjirining integrasiyasi 15 ta faktorli DEA tahlili orqali amalga oshirilgan bo'lib, unda ishlab chiqarish natijalari, iqtisodiy samaradorlik va rentabellik o'rtasidagi gipotezaviy munosabatlarni xaritalashning konseptual tadqiqot modeli ishlab chiqarishga joriy qilish uchun qabul qilingan. Mazkur modellarda qishloq xo'jaligi ma'lumotlarining oqimi va ta'minot zanjiridan iborat platformalarga ulanish qo'shimcha afzalliklar, xususan, issiqxona xo'jaliklarining rentabellik darajasini kamida 36%ga o'sishi, xarajatlar miqdorini 19%ga kamayishi, mehnat unumdorligini 29%ga oshishi va raqamli integrasiyani an'anaviy amaliyotga nisbatan 22% maqbullashtirilgan texnik samaradorlikka mos kelishi aniqlandi. Natijada ushbu ilmiy-uslubiy tavsiyalardan issiqxona xo'jaliklari faoliyati samaradorligini oshirish va uni isloh qilish hamda faoliyatni takomillashtirish bo'yicha manzilli yo'l xaritalari, maqsadli dasturlar va chora-tadbirlar ishlab chiqishda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

6. 3D nurli kuzatuv modellarini issiqxona tomining burchak yo'nalishga o'rnatilishi natijasida issiqxonalarini qish mavsumida 25%ga ko'proq tabiiy yorug'lik olishi natijasida energiyani 15%gacha tejashga erishildi. Ekinlarning fotosintezini o'lchash uchun ikkita yangi sensor tavsiya etildi va hozirda ular amalda sinovdan o'tkazish davom etmoqda. Amaliyotda LED yoritgichlar yoz va qish mavsumlarida energiya samaradorligini kamida 40%ga oshirishi hamda sabzavotlarning kasallanishini oldini olishi, fotosintezni yaxshilashi, yorug'lik to'lqin uzunliklarining o'simliklar bilan o'zaro ta'sirini simulyasiya jarayonini uyg'unlashtirishi, energiya xarajatlarini esa kamaytirish imkonini berishi asoslandi.

7. Olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida sabzavotchilik mahsulotlari bozorida tovar mahsulotlari kesimida takliflarni shakllantirish va rivojlantirish, issiqxona xo'jaliklarida sabzavotchilikni samarali tashkil etish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqildi. Jumladan, issiqxonalarda ishlab chiqarish hajmini oshirish, resurslardan samarali foydalanish va davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar asoslandi. Shu bilan birga, istiqbolda sabzavot etishtirish tendensiyalarini hisobga olgan holda, bozor talablariga mos ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari sohadagi tashkiliy-iqtisodiy muammolarni hal etish va issiqxona sabzavotchiligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

8. Zamonaviy issiqxonalarda mikroiklim xususiyatlarini saqlash va nazorat qilishning yangi texnologiyalari orasida "Angar" tipidagi issiqxonalar - havo oqimlarining konveksiyasini o'zgartirmasligi, tabiiy holatni maksimal darajada saqlashi, ekinlarga mayin shamol yo'naltirish tizimi, harorat, namlik, karbonat angidrid miqdori va konsentrasiyasi, ekinlarning vegetasiyasi, energiya sarfini maqbullashtirishi, ekinlarni o'sishi va meva berishi hamda boshqa jihatlari ushbu tipdagi issiqxonalarini xo'jalik sub'ektlarida tizimli qo'llash uchun qabul qilindi.

Shuningdek, bu texnologiya amaliyotda yuqori zichlikda ekinlarni va ko'p bosqichli tizimlarni joylashtirish, modulli konstruksiyaga egaligi, eng asosiysi, pomidor, bodring, qulupnay va atirgullarda vertikal dehqonchilikni qo'llash, akvaponika va gidroponika, tuproqsiz maxsulot etishtirish tizimini joriy qilish, kamroq texnik xizmat ko'rsatish afzalliklariga ega hisoblanadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
МЕЖДУНАРОДНОМ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ PhD.05/15.12.2022.I.155.01.**

**МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЦЕНТР СТРАТЕГИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ И
ИССЛЕДОВАНИЙ В СФЕРЕ ПРОДОВОЛЬСТВИЯ И СЕЛЬСКОГО
ХОЗЯЙСТВА ПРИ МИНИСТЕРСТВЕ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

ДУРМАНОВ АКМАЛ ШАЙМАРДАНОВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИХ ОСНОВ
ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ТЕПЛИЧНЫХ
ХОЗЯЙСТВ**

08.00.04 – Экономика сельского хозяйства

**ПРЕДСТАВЛЕНИЕ МАТЕРИАЛОВ
исследования по присуждению ученой степени доктора
экономических наук (DSc)**

Ташкент – 2025

Тема исследования на соискание ученой степени доктора наук (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2018.3.DSc/Iqt146. Исследовательская работа выполнена в Международном центре стратегического развития и исследований в области продовольствия и сельского хозяйства.

Презентация исследовательской работы на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещена на веб-сайте научного совета (www.iau.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный консультант:

Фарманов Тулкин Хайитмуродович
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Эгамбердиев Фармонкул Турсункулович
доктор экономических наук, профессор

Ташматов Рустам Хусанович
доктор экономических наук, профессор

Хамраева Сайёра Насимовна
доктор экономических наук, профессор

Ведущая организация:

Самаркандский филиал Ташкентского
государственного экономического университета

Защита диссертационной работы состоится на заседании Научного совета № PhD.05/15.12.2022.I.155.01 при Международном сельскохозяйственном университете «___» _____ 2025 года в _____ часов.

Адрес: 100140, Республика Узбекистан, Ташкентская область, Кибрайский район, улица Университет, дом 2а. Тел.: +(99) 981-09-19, e-mail: info@iau.uz

Ознакомиться с диссертационной работой на соискание ученой степени доктора наук (DSc) можно в Информационно-ресурсном центре Международного сельскохозяйственного университета (зарегистрирована под № ____). Адрес: 100140, Республика Узбекистан, Ташкентская область, Кибрайский район, улица Университет, дом 2а. Тел.: +(998) 981-09-19, e-mail: info@iau.uz

Исследовательская работа разослана “___” _____ 2025 года.
(протокол реестра № ____ от “___” _____ 2025 года).

И.Б.Рустамова

Председатель научного совета по присуждению
ученой степени, доктор экономических наук,
профессор

А.Э.Примов

Ученый секретарь научного совета по
присуждению ученой степени, доктор
философии по экономическим наукам (PhD)

Ш.Т.Хасанов

Председатель научного семинара при научном
совете по присуждению ученой степени, доктор
экономических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (Аннотация исследования).

Актуальность и востребованность темы диссертации. Проблема достижения продовольственной безопасности на основе устойчивого развития сельскохозяйственного производства, определяющего социально-экономическое благополучие общества, выступает как одна из актуальных проблем мировой экономики. Постоянный рост численности населения во всем мире обуславливает необходимость пропорционального увеличения спроса на продукты питания. Наряду с использованием возможностей интенсивного развития экономики это, в свою очередь, требует создания современных инновационных и ресурсосберегающих методов хозяйствования и системно внедрять их в практику.

Вследствие воздействия антропогенных факторов глобальные изменения климата, экологические кризисы, такие как «парниковый эффект», наблюдаемые в мире, оказывают значительное негативное влияние и на сферу сельского хозяйства, которая считается основной отраслью, обеспечивающей продовольственную безопасность стран. По мнению специалистов, «... к 2100 году в результате парникового эффекта мировой валовой внутренней продукт может снизиться более чем на 20 процентов»¹⁵. Это, в свою очередь, обуславливает необходимость не только смягчения негативных воздействий указанных антропогенных факторов, но и рационального использования имеющихся ресурсов в сельскохозяйственном производстве, а также осуществления мер по адаптации сельского хозяйства к изменению климата. В этом контексте развитие сельскохозяйственного производства в теплицах и проведение исследований в данном направлении вышли на уровень актуальной задачи глобального масштаба.

В стране проводятся масштабные реформы по обеспечению продовольственной безопасности, насыщению внутреннего рынка качественными, безопасными и доступными продуктами питания, а также по укреплению покупательской способности населения. В частности, с целью стабильного обеспечения населения продуктами питания на душу населения определены такие приоритетные задачи, как «... совершенствование системы управления в тепличных хозяйствах и внедрение эффективных механизмов государственной поддержки, а также расширение объемов производства высококачественной, конкурентоспособной и экспортноориентированной продукции на основе современных ресурсосберегающих технологий»². В этом контексте проведение исследований в направлении совершенствования научно-методических основ повышения эффективности деятельности тепличных хозяйств, направленной на рациональное использование производственного потенциала закрытого грунта, приобретает важное значение.

¹⁵ Simon Jessop. Coastal flooding could hit 20% of world GDP by 2100 – study. <https://www.reuters.com/article/us-climatechange-floods-study-idUKKCN24V2RZ>

² Постановление Пезидента Республики Узбекистана от 20 марта 2019 года № ПП-4246 “О мерах по дальнейшему развитию садоводства и тепличного хозяйства в Республике Узбекистан”. <https://lex.uz/docs/4249824>

В этом направлении данное исследование в определенной степени будет способствовать реализации задач, предусмотренных Указом Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 года № ПФ-4947 «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», Указом от 9 октября 2017 года № ПФ-5199 «О мерах по коренному совершенствованию системы защиты прав и законных интересов фермерских, дехканских хозяйств и владельцев приусадебных земель, эффективного использования сельскохозяйственных угодий», Указом от 16 января 2018 года № ПФ-5303 «О мерах по дальнейшему обеспечению продовольственной безопасности страны», Указом от 17 июня 2019 года № ПФ-5742 «О концепции эффективного использования земельных и водных ресурсов в сельском хозяйстве», Указом от 23 октября 2019 года № ПФ-5853 «Об утверждении Стратегии развития сельского хозяйства Республики Узбекистан на 2020–2030 годы» и Указом от 28 января 2022 года № ПФ-60 «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», а также Постановлением Президента от 20 ноября 2018 года № ПҚ-4020 «О мерах по созданию дополнительных условий для развития тепличных комплексов» и Постановлением от 20 марта 2019 года № ПҚ-4246 «О мерах по дальнейшему развитию садоводства и тепличного хозяйства в Республике Узбекистан» и других нормативно-правовых актов, относящихся к данной сфере деятельности.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий в республике. Исследовательская работа выполнена в рамках научных исследований, осуществляемых в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий в республике «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического правового общества, формирование инновационной экономики» и Государственной научно-технической программой ИТД-2 «Разработка научных основ дальнейшего углубления демократических реформ, формирования гражданского общества, модернизации и либерализации национальной экономики».

Обзор зарубежных исследований по теме¹⁶. В настоящее время в мировой аграрной экономике ведутся научные исследования в ведущих научно-исследовательских институтах, высших учебных заведениях и научных центрах по вопросам повышения эффективности деятельности тепличных хозяйств и оценки их деятельности. К числу таких организаций относятся: Университет Массачусетса (Англия), ИАМО – Институт аграрного развития в странах с переходной экономикой имени Лейбница (Германия), Национальная академия наук Вашингтона (США), Институт экономики сельского хозяйства и научно-технической информации (Китай), Продовольственная и сельскохозяйственная организация (FAO), Международный центр сельскохозяйственных исследований в засушливых

¹⁶ Обзор зарубежных научных исследований по теме исследования на основе материалов, представленных на сайтах www.zef.de, www.uni-goettingen.de, www.iamo.de, www.sdu.dk, www.uq.edu.au/economics/cepa, www.uv.es/uvweb/applied_economics_department, www.uwrf.edu/AGEC, www.pku.edu.cn, www.wur.nl/en/Education-Programmes/PhD-Programme и других источников.

районах (ICARDA), Программа развития ООН (UNDP), Агентство США по международному развитию (USAID), Российский государственный аграрный университет – Московская сельскохозяйственная академия имени К. А. Тимирязева (Россия), Международный центр стратегического развития и исследований в области продовольствия и сельского хозяйства (Узбекистан).

Учёные Массачусетского университета (Douglas Cox, Composting Natalia Clifton и другие, 2002 г.) в ходе своих исследований обосновали, что комплекс тепличного (промышленного) хозяйства необходимо поддерживать не только экономически, но и, в первую очередь, экологически, что обеспечит устойчивое развитие данной деятельности.

Учёные Национальной академии наук Вашингтона (K. John Holmes, 2011 г.) в исследовании «Моделирование экономики сокращения парниковых газов» применили различные методы, включая анализ уровня технологических деталей, пространственных и отраслевых особенностей технологического прогресса, моделирование взаимосвязи энергетического сектора с общей экономикой и окружающей средой, а также изучение влияния различных моделей на сметные расходы тепличного хозяйства, повышение объёмов производства и снижение затрат.

Современные международные исследования по повышению эффективности тепличных хозяйств ведутся по следующим направлениям: энергоэффективность и интеграция возобновляемых источников энергии (накопление тепловой энергии, солнечные панели, геотермальная энергия), автоматизация и интеллектуальные технологии (IoT, цифровые двойники, искусственный интеллект), оптимизация использования водных и питательных ресурсов, адаптация к климату и устойчивость, конструкции теплиц (дизайн, модификация), кластерные и кооперативные модели, сельское хозяйство (лекарственные растения и экзотические овощи), химические и биотехнологические разработки (севообороты и альтернативные системы посадки), экономические системы и маркетинговые исследования (логистика, анализ глобальных цепочек поставок), геодезия и геоинформатика, интеграция образования и производства, а также комплексная оценка эффективности функционирования системы с применением оптимизационных экономико-математических моделей для совершенствования структуры производства в тепличных хозяйствах и другие аспекты.

